ISSN 218-8088

XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI

"XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI" JURNALI

Muassis:
"Xalq ta'limi" jurnali tahririyati DUK

PUBLIC EDUCATION BULLETIN

"PUBLIC EDUCATION BULLETIN" JOURNAL

2023

4-son

(Iyul-Avgust)

Jurnal 2015-yildan chiqa boshlagan

(O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2014-yil 17-maydagi
137-sonli buyrug'i bilan tashkil etilgan)

TOSHKENT


Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ‘‘Umumiy o‘rta ta’lim maktablarini Fransiyaning Hachette Livre Group nashriyoti tomonidan ishlab chiqilgan fransuz tili darslik majmualari bilan ta’minlash to‘g‘risida’’gi **2023-yil 2-iyun, 146-son buyrug‘i..... 4**


Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ‘‘Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish to‘g‘risida’’gi **2023-yil 5-iyun, 149-son buyrug‘i 6**


Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ‘‘Nufuzli xalqaro olimpiadalarda O‘zbekiston terma jamoasi ishtirokini ta’minlash to‘g‘risida’’gi **2023-yil 5-iyun, 150-son buyrug‘i..... 42**


Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ‘‘Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida inklyuziv ta’limni takomillashtirish bo‘yicha davlat xaridlarini amalga oshirish to‘g‘risida’’gi **2023-yil 9-iyun, 160-son buyrug‘i 45**


Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ‘‘2023-2024-o‘quv yili uchun ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida’’gi **2023-yil 22-iyun, 178-son buyrug‘i..... 50**


Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ‘‘Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hududiy bo‘linmalarining faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida’’gi 2**023-yil 27-iyun, 188-son buyrug‘i..... 79**


Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ‘‘Umumta’lim maktablarida yuqori sinf o‘quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etishni tajriba-sinovdan o‘tkazish to‘g‘risida’’gi **2023-yil 27-iyun, 192-son buyrug‘i..... 81**

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ‘‘Ikkinchi xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti joriy etiladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasini tasdiqlash to‘g‘risida’’gi **2023-yil 17-iyul, 209-son buyrug‘i..... 101**

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ‘‘Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan variativ o‘quv rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida’’gi **2023-yil 19-iyul, 213-son buyrug‘i 109**

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ‘‘Kutubxonalar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi **2023-yil 24-iyul, 217-son buyrug‘i.....111**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarini Fransiyaning Hachette Livre Group nashriyoti tomonidan ishlab chiqilgan fransuz tili darslik majmualari bilan ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora- tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoniga muvofiq Fransiya Respublikasi Hachette Livre Group guruhining “Passe-Passe”, “Decibel” va “L’atelier” darsliklarini xarid qilish va amaliyotga joriy qilishga doir vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Fransiyaning Hachette Livre Group nashriyoti tomonidan ishlab chiqilgan fransuz tili darslik majmualarini qabul qilish va umumiy o‘rta ta’lim maktablarini mazkur darsliklar bilan ta’minlash ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha ishchi guruh tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi fransuz tili o‘qitiladigan maktablarda Fransiyaning Hachette Livre Group guruhi tomonidan ishlab chiqilgan Didier FLE o‘quv-metodik majmualaridan foydalanish bo‘yicha qaror qabul qilinganligi;

Respublika ta’lim markazida tashkil etilgan ishchi guruh tomonidan nashriyotning o‘quv-metodik majmualari o‘rganilganligi;

Hachette Livre Group guruhi tomonidan ishlab chiqilgan “Passe-Passe” darslik majmualari umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-4-sinflari uchun, “Decibel” darslik majmualari 5-9-sinflari uchun hamda “L’atelier” darslik majmualari 10-11-sinflar uchun mosligi belgilanganligi;

Didier FLE nashrlarining xalqaro distribyutori hisoblangan Groupe Hatier International (GHI) bilan vazirlik o‘rtasida shartnoma imzolanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F.Jamuratova) imzolangan shartnomaga muvofiq to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda amalga oshirsin.

4. O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva), Respublika ta’lim markazi (Sh.Sattarov) 10 kun

muddatda tajribali mutaxassislarni jalb qilgan holda Hachette Livre Group guruhi tomonidan ishlab chiqilgan “Passe-Passe” (1-4-sinflar), “Decibel” (5-9-sinflar) hamda “L’atelier” (10-11-sinflar) darslik majmualarini milliy qadriyatlarimizga hamda o‘quv rejaga mosligi nuqtayi nazaridan ekspertizadan o‘tkazsin va xulosalarni Hachette Livre Group guruhiga taqdim etsin.

5. O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva), Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Kuchkarova), Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova) shartnoma doirasida belgilangan muddatlarda Didier FLE nashrlarining xalqaro distribyutori hisoblangan Groupe Hatier International (GHI) bilan hamkorlikda yangi 1-11-sinf fransuz tili darslik majmualaridan foydalanish bo‘yicha masofaviy vebinarlar hamda hududlarda oflayn seminarlar tashkil etsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 2-iyun,
146-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining “Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish to‘g‘risida” 2017-yil 27-apreldagi 246-son va “Mehnat muhofazasi bo‘yicha ishlarni tashkil etish to‘g‘risida”gi namunaviy nizomga muvofiq Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida mehnatni muhofaza qilish ishlarini to‘g‘ri tashkil etish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlarida mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish to‘g‘risida nizom 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlarida mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitishni tashkil qilish va bilimlarni tekshirish to‘g‘risida nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mehnatni muhofaza qilish bo‘limi bo‘yicha muhandisi (X. Xamidov), Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Z.Togayeva), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi bosh boshqarmasi va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari mudirlari hamda vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlari direktorlariga:

mehnatni muhofaza qilish ishlarini va mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitishni tashkil qilish hamda bilimlarni tekshirishni ushbu buyruq bilan tasdiqlangan nizomlar asosida tashkil etilishini ta’minlash;

mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil qilish jarayonlarida mazkur nizomlar talablariga qat'iy amal qilinishi bo‘yicha birinchi rahbarlar shaxsiy javobgar ekanligi belgilab qo‘yilsin hamda birinchi rahbarga o‘z boshqaruvidagi xodimlarini ushbu nizomlar bilan tanishtirish vazifalari yuklatilsin.

3. Mehnatni muhofaza qilish bo‘limi bo‘yicha muhandisi (X.Xamidov)ga:

mehnatni muhofaza qilish ishlari va mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitishni tashkil qilish hamda bilimlarni tekshirishni nizom asosida yuritilishini nazorat qilib borish;

mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha 3 bosqichli nazorat tekshiruvi (monitoring) olib borilishi va xodimlarning mehnatni muhofaza qilish sohasida bilimlarini tekshirish imtihonlarini tashkillashtirish;

xodimlar uchun beriladigan “Kirish” va “Ish joyidagi” yo‘l-yo‘riqlarni to‘g‘ri va sifatli o‘tkazib borish va nazorat qilish;

nizom talablariga rioya qilmagan mas'ullarga nisbatan o‘rnatilgan tartibda intizomiy jazo choralarini qo‘llash bo‘yicha vazirlik rahbariyatiga takliflar kiritish vazifalari yuklatilsin.

4. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni o‘rnatilgan tartibda vazirlikning tarkibiy boshqarma va bo‘limlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlariga yetkazsin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 5-iyun,
149-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2023-yil 5-iyundagi
149-son buyrug‘iga
1-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlarida mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish to‘g‘risida
NIZOM

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-dekabrdagi 1066-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1996-yil 14-avgustda 273-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Mehnat muhofazasi bo‘yicha ishlarni tashkil etish to‘g‘risida”gi Namunaviy nizom talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda - Vazirlik) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda - tizim tashkilotlari) tizimida mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha ishlarni tashkil etishning yagona tartibini belgilab beradi.

I bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan barcha xodimlarni mehnat jarayonida sodir bo‘lishi mumkin baxtsiz hodisalardan asrash, sog‘lig‘ini saqlashga qaratilgan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish va mehnatini muhofaza qilishni ta’minlashga qaratilgan.

2. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarida mehnatni muhofaza qilishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

xodimning hayoti va sog‘lig‘i ustuvorligini ta’minlash;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi talablarni belgilash;

ish joylarida xavfsiz mehnat sharoitlari yaratilishini va atrof-muhit holati doimo nazorat etilishini ta’minlash;

mehnatni muhofaza qilish talablari barcha ish joylarida bajarilishini nazorat qilish;

tegishli kasb xodimlarini maxsus kiyim, shaxsiy himoya vositalari bilan bepul ta'minlash;

ishda sodir bo'lgan har bir hodisa, shikastlanishni va xodimlar sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilishining tekshiruvdan o'tkazilishi hamda hisobga olinishini tashkil etish va ta'minlash;

baxtsiz hodisalarda jarohatlangan xodimlarning manfaatlarini ijtimoiy himoya qilish;

rahbarlar va (Bosh) mutaxassislarning, texnik xodimlar mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha tayyorlanishi, qayta tayyorlanishi, malakasi oshirilishi va bilimlari tekshirilishini tashkil etish.

3. Mehnatni muhofaza qilish mutaxassisligini joriy etish to'g'risida talablar O'zbekiston Respublikasi "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuninig 12-moddasida ko'rsatib o'tilgan.

4. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassisi uch yilda kamida bir marta O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Respublika mehnat organlari malakasini oshirish kurslarida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda malaka oshiradi.

5. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilishini ta'minlash va soha nazorati uchun Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar rahbarlari javobgar hisoblanadi.

6. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarida xodimlarning mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar rahbar o'rinbosarlari, mehnatni muhofaza qilish xodimlari yoki mazkur vazifa yuklatilgan shaxslar kasaba uyushma qo'mitasi bilan birgalikda jamoatchilik nazoratini olib boradilar. Ular ish joylarida mehnat sharoitlari holatlarini hech bir to'sqinliksiz tekshirish, qoidabuzarliklarni aniqlash va bartaraf etish, aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida yuqori rahbariyatga bildirishnomalar va takliflar kiritish, tarkibiy tuzilmalar rahbarlariga bajarilishi shart bo'lgan ko'rsatmalar berish huquqiga ega.

II bob. Xodimlarning mehnat sharoitlari xavfsizligini ta'miniash

7. Rahbar va (Bosh) mutaxassislar, xususan, texnik xodimlar xodimlar kasbiy tanlovdan o'tganlaridan so'ng mehnatni muhofaza qilish bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartib va muddatlarda yo'l-yo'riqlardan va bilimlari sinovdan o'tkaziladi.

7.1. Yo‘l-yo‘riqlar quyidagi turlarga bo‘linadi:
- “Kirish” (tanishtiruv) yo‘l-yo‘rig‘i;
- “Ish joyidagi” yo‘l-yo‘riq.

7.2. Ish joyidagi yo‘l-yo‘riq o‘z navbatida 3 turga bo‘linadi:
- dastlabki yo‘l-yo‘riq;
- davriy (navbatdagi) yo‘l-yo‘riq;
- navbatdan tashqari yo‘l-yo‘riq.

8. “Kirish” (tanishtiruv) yo‘l-yo‘rig‘ini mehnatni muhofaza qilish mutaxassisi yoki mazkur vazifa yuklatilgan xodim o‘tkazsa, “Ish joyidagi” yo‘l-yo‘riqlarni tarkibiy tuzilmalar rahbarlari (boshqarma, bo‘lim boshliqlari) o‘tkazishadi.

Xodimlarni “Kirish” yo‘l-yo‘riqdan o‘tkazilganliklarini “Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha kirish yo‘l-yo‘riqni qayd qilish jurnali”da rasmiylashtirilishi kerak.

9. Rahbar va (Bosh) mutaxassislarning mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha bilimlari uch yilda bir marta, texnik xodimlarning bilimlari har yili sinovdan o‘tkaziladi.

10. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi burchaklari tashkil etiladi.

11. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlari bino va inshootlari “Qurilish me’yorlari va qoidalari” hamda Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi talablariga asosan joriy va to’la ta’mirdan o‘tkazib turiladi.

12. Xonalarda Sanitariya qoidalari va normalari (SanPin) talablariga javob beruvchi havo namligi va harorati yaratilishi, sun’iy yoritkichlar toza va soz holda saqlanishi kerak.

13. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlari rahbarlari tomonidan texnik xodimlari uchun maxsus kiyim, maxsus poyabzal va boshqa yakka tartibda himoyalanish vositalarni hamda shaxsiy himoya vositalari (SHHV) bilan bepul berishning namunaviy me’yorlarga mos ravishda ta’minlanishlari lozim.

14. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlari rahbar va (Bosh) mutaxassislari hamda texnik xodimlarining mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha bilimlarini sinovdan o‘tkazish “Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qishlarni tashkil qilish va bilimlarni sinash haqida”gi namunaviy Nizomga (ro‘yxat raqami 272-sonli, 1996-yil 14-avgust) muvofiq amalga oshiriladi.

15. Ishlarni xavfsiz yuritish yo‘riqnomalari “Mehnat muhofazasi bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish to‘g‘risida”gi nizomga (ro‘yxat raqami 870-sonli, 2000-yil 7-yanvar) muvofiq ishlab chiqiladi va ishlovchilar hamda ish joylarini shu yo‘riqnoma bilan ta’minlash Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlari rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.

III bob. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarida mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha ishlarni tashkil etish

16. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarida mehnatni muhofaza qilish chora-tadbirlari bo‘lib, xodimlarning faoliyat jarayonidagi xavfsizligi, salomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, sanitariya-gigiyena va davolash-profilaktika ishlarini amalga oshirish hisoblanadi.

17. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlari rahbarlari mazkur Nizomga asosan yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasiga oid javobgarlik majburiyatlarni tegishli xodimlar o‘rtasida buyruq asosida ta’minlanadi.

18. Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis yoki mazkur vazifalari yuklatilgan mas’ul xodimlar kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan hamkorlikda ishlaydi hamda Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlari rahbariga bo‘ysunadi.

19. Fuqarolarni sog‘ligi holatiga ko‘ra o‘ziga to‘g‘ri kelmaydigan ishga qabul qilish va xodimlarni boshqa shunday ishga o‘tkazish taqiqlanadi. (“Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 410-son Qonunining 21-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan).

20. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarida 3 bosqichli nazorat tekshiruvi (monitoring) olib borish O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1996-yil 14-avgustdagi 273-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan “Mehnat muhofazasi bo‘yicha ishlarni tashkil etish to‘g‘risida”gi namunaviy Nizomning 6-bobida belgilangan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

21. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlari rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan 1996-yil 14-avgustdagi 273-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan “Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha ishlarni tashkillashtirish to‘g‘risida”gi namunaviy Nizomning 7-bobida belgilangan mezonlar asosida quyidagi asosiy hujjatlar ishlab chiqiladi (tuziladi) va yuritiladi:

jamoa shartnomasida mehnat sharoitlari va xavfsizligini, sanitariya-sog‘lomlashtirish tadbirlarini takomillashtirish bo‘yicha majburiy bo‘lim kiritilishi;

ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarning jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish;

mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yillik ish rejalar ishlab chiqish;

mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlari xodimlarini o‘qitish dasturlarini ishlab chiqish va o‘rgatish, bilimlarini sinovdan o‘tkazish.

IV bob. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlari rahbarlarining va mehnatni muhofaza qilish vazifalari yuklatilgan mas'ul xodimlarning huquq va majburiyatlari

22. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlari rahbarlarining mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo'yicha huquqlari quyidagilardan iborat:

xodimlardan mehnatni muhofaza qilishga hamda ishlarni xavfsiz olib borishga doir normalar, qoidalar va yo'riqnomalarga rioya etishni talab qila oladi;

xodimlarning alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik moddasi yoki toksik modda ta'siridan mast holatda ekanligini aniqlash uchun ularni tekshiruvdan o'tkazish maqsadida ma'lumot olish huquqiga ega;

xodimlar olgan jarohatlanishlarning og'irlik darajasi, xodimlarda ularning jarohatlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan kasallik mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar olishi mumkin;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarni buzganlikda aybdor xodimlarni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortadi.

23. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlari rahbarlarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

har bir ish joyida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, sanitariya-gigiyena, yong'indan saqlash qoidalari va me'yorlari talablarining bajarilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilishini tashkil etadi;

mehnat xavfsizligi bo'yicha qo'shimcha (yuqori) talablar qo'yiladigan kasblar (elektrik, santexnik, farrosh, bog'bon, liftchi va boshqalar) ro'yxatini aniqlab, har yili ushbu kasb egalarining bilimlarini sinovdan o'tkazilishini tashkillashtiradi;

mehnat sharoiti zararli va xavfli ishlarda mehnat qiluvchi xodimlarini maxsus kiyim, poyabzal va shaxsiy himoya vositalari bilan bepul ta'minlanishlarini tashkil qiladi;

mehnatni muhofaza qilish sohasida kamchiliklar aniqlanganda, ularning bartaraf etilishini ta'minlaydi;

binolar, inshootlar, kompyuter va orgtexnikadan foydalanish, xizmat vazifalarini ko'rsatish chog'ida xodimlarning xavfsizligini ta'minlaydi;

xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo'yicha tegishli yo'l-yo'riqlar olishi, mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha o'quvdan, qayta tayyorgarlikdan o'tishi, malaka oshirishi va bilimlari tekshirilishini ta'minlaydi;

nogironlar band bo‘lgan zararli, xavfli va boshqacha mehnat sharoitlariga ega ish o‘rinlarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ish o‘rinlarining mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyasi o‘tkazilishini tashkil etadi;

belgilangan tartibda tibbiy ko‘riklar o‘tkazilishini tashkil etadi;

tashkilot binosida qonunchilikda belgilangan tartibda nogironlar uchun maxsus yo‘lakcha (pandus) bo’lishini ta’minlaydi;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organlarning hamda kasaba uyushmalarining ko‘rsatmalarini, taqdimnomalarini ko‘rib chiqadi va bajarilishini ta’minlaydi;

har bir sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalarni belgilangan tartibda tekshiradi va hisobi yuritilishini, jabrlangan xodimlarning ijtimoiy himoyasini tashkil etadi;

Davlat nazorat organlari, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi, FVV huzuridagi yong‘in inspeksiyasi, kasaba uyushmalari hamda mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha vakillari, mehnatni muhofaza qilish xodimlari va jamoatchilik nazorati vakillari tomonidan berilgan taqdimnomalarda qayd etilgan kamchiliklarning bartaraf etilishini ta’minlaydi.

24. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlaridagi mehnatni muhofaza qilish vazifalari yuklatilgan mas’ul xodimlarning vazifalari quyidagilardan iborat:

mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha me’yoriy va uslubiy hujjatlar bo‘lishini ta’minlaydi;

mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi “Kirish” yo‘l-yo‘rig‘i dasturini ishlab chiqish hamda tasdiqlatish;

ishga yangi qabul qilinayotgan xodimlar, Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlariga ishlash uchun safarbar qilingan boshqa tashkilotlarning xodimlari (malakasi, ish staji va tajribasidan qat’i nazar), shuningdek, xizmat safari bilan kelgan xodimlarga xavfsiz ish sharoitlari, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, elektr xavfsizligi, sanitariya-gigiyena talablari bo‘yicha tanishtiruv “Kirish” yo‘l-yo‘rig‘ini o‘tkazadi;

mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, elektr va yong‘in xavfsizligi bo‘yicha ish joyidagi yo‘riqnomalarga asosan xodimlarga davriy yo‘l- yo‘riq (har 6 oyda) o‘tkazib, “Ish joyidagi” yo‘l-yo‘riq qayd qilish jurnaliga imzo quydirib yozib boradi;

ishlarni xavfsiz olib borishga doir yo‘riqnomalarni kasaba uyushmasi va mehnatni muhofaza qilish xodimi bilan kelishgan holda o‘z tarkibiy bo‘linmasi xodimlari uchun ishlab chiqadi va rahbar tasdig‘idan o‘tkazadi;

mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha “Doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi komissiyasi” tarkibida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha xodimlar bilimlarini belgilangan muddatlarda sinovdan o‘tkazish va tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish ishlarini olib boradi;

amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda tegishli kasb xodimlarining ish o‘rni attestatsiyasi o‘tkazilishida ishtirok etadi;

Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlari rahbariyatiga aniqlangan kamchiliklar va qoidabuzarliklarni bartaraf etish hamda uni buzgan shaxslarga chora ko‘rish to‘g‘risida dalolatnoma va bildirishnomalar, takliflar kiritadi, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlariga ko‘rsatmalar beradi;

ishlab chiqarish jarayonida yuz bergan har bir baxtsiz hodisa va jarohatlanishlarning tekshirilishi va hisobga olinishida ishtirok etadi;

mehnat sharoiti zararli ishlab chiqarishlarda mehnat qiluvchi tegishli kasblar xodimlarini maxsus kiyim, poyabzal va shaxsiy himoya vositalari bilan bepul ta’minlanishlarini nazorat qiladi;

Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlari binosiga nogironlar to‘sqinliksiz kirishlarini ta’minlash maqsadida pandus (maxsus tekis qiya yo‘lakcha) bilan ta’minlanganini nazorat qiladi.

xodimlarning mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi hamda yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilish holatini Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarining vakillari bilan hamkorlikda tekshirish va monitoring olib borish;

mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirilishini nazorat qilish;

mehnatni muhofaza qilish holatini o‘rganish va qonun hujjatlarga rioya qilmaslik holatlarini aniqlash hamda baxtsiz hodisalar sabablarini tahlil qilish;

mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi hamda elektr va yong‘in xavfsizligi bo‘yicha xodimlarning bilimlarini tekshirish ishlarida, baxtsiz hodisalarning sabablarini tekshirishda, ularning oldini olish bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqishda, tashkilot xodimiga ish vaqtida mehnat vazifasini bajarishda hayoti va sog‘lig‘iga keltirilgan zararni to‘lash bo‘yicha hujjatlarni tayyorlashda ishtirok etish;

mehnatni muhofaza qilish va mehnat sharoiti bo‘yicha statistik hisobotlarni tayyorlash.

mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha tadbirlarni bajarish uchun ajratilgan pul mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishini nazorat qilish;

sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar to‘g‘risida tizim tashkilotlari mehnatni muhofaza qilish ishlariga mas’ul xodimi tomonidan o‘z vaqtida

xabar berilishini, zararli va xavfli sharoitlarda ishlaydigan texnik xodimlarga kompensatsiya va imtiyoz berilgan holda ish vaqti va dam olish vaqtiga rioya qilishini nazorat qilish;

tizim tashkilotlarida sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalarni tekshirishda ishtirok etish. Jamoa shartnomasining “Mehnatni muhofaza qilish” bo‘limida belgilangan tadbirlarning, baxtsiz hodisalarning kelib chiqish sabablarini bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlarni, (N-1 shakli dalolatnomasidan) mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bitimning bajarilishini, davlat nazorati organlari ko‘rsatmalari bajarilishini va qonun hujjatlarining mehnat sharoitini ta’minlash bo‘yicha boshqa tadbirlarning ijrosini nazorat qilish.

vakolatli davlat organlarining buyruqlari va ko‘rsatmalari, kasaba uyushmasi qo‘mitasi, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi xizmati dalolatnomalari, taqdimnomalari, yozma ko‘rsatmalarida ko‘rsatilgan talablarning o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlaydi;

25. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlaridagi mehnatni muhofaza qilishga mas’ul xodimlarning huquqlari quyidagilardan iborat:

Mehnatni muhofaza qilish vazifalari yuklatilgan xodimlari mehnatni muhofaza qilish qoidalari va normalariga barcha xodimlar tomonidan rioya etilishini nazorat qilish, tarkibiy bo‘linmalarning rahbarlariga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to‘g‘risida ijro etilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berish, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar talablarini buzayotgan shaxslarni amaldagi qonunchilik talablariga binoan javobgarlikka tortish to‘g‘risida va tizim tashkilotlari rahbarlariga taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

tashkilotlardan mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha zarur ma’lumotlarni olish, mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya qilmagan shaxslardan yozma ravishda tushuntirish xatlarini olish;

mehnat sharoitlarini yaxshilash va xavfsizlikni ta’minlash ishlarini faol olib boradigan xodimlarni rag‘batlantirish bo‘yicha tashkilot rahbariyatiga taklif kiritish va mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha qoidalariga va me’yorlariga amal qilmagan shaxslarni qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish bo‘yicha rahbariyatga takliflar kiritishga haqli;

mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha qonun hujjatlarining talablari buzilganda mehnatni muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

mazkur nizom va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq o‘z zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarni o‘z vaqtida sifatli va samarali bajarish;

xodimlar tomonidan mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha qonunchilik hujjatlari talablari buzilganligi aniqlanganda kechiktirmasdan rahbariyatga xabar berish;

mehnatni muhofaza qilish sohasi bo‘yicha davlat organlariga xizmat faoliyatiga oid hujjatlarni va boshqa ma’lumotlarni taqdim etib borish;

o‘rnatilgan tartibda malaka oshirib borish va attestatsiyadan o‘tish;

Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarida mehnatni muhofaza qilish qoida va me’yorlariga rioya qilinishini tekshirish (o‘rganish) to‘g‘risidagi tegishli reja-jadvali hamda farmoyishiga asosan o‘tkaziladi.

har bir tekshirish (o‘rganish) natijalari mehnatni muhofaza qilish xodimi tomonidan ikki nusxada ma’lumotnoma yoki 1-ilovada keltirilgan taqdimnoma shaklida rasmiylashtiriladi hamda tashkilot rahbari yoki ularning vakolatli vakillariga bir nusxadan beriladi;

barcha tashkilot rahbarlari ma’lumotnoma yoki taqdimnomaning bajarilishi haqida ularda ko‘rsatilgan sanagacha tekshirish (o‘rganish) o‘tkazgan xodimga yozma ravishda axborot beradi;

mehnatni muhofaza qilishga mas’ul xodim berilgan yozma axborotdan qoniqmasa, ma’lumotnoma yoki taqdimnoma haqiqatda bajarilganligini joyiga chiqib, ko‘rishi mumkin;

Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarining mehnatni muhofaza qilish ishlariga mas’ul xodimlari tomonidan joriy yilning har choragi (uch, olti, to‘qqiz va o‘n ikki oy) yakuni bo‘yicha ma’lumotlarni 2-ilovalarga muvofiq Vazirlikning Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassisiga yil boshidan ortib boruvchi yakun tarzida umumlashtirib, tahlil etgan holda taqdim etib boradilar.

mehnatni muhofaza qilish vazifalari yuklatilgan mas’ul xodimlarning javobgarlik darajasi lavozim yo‘riqnomalari bilan tasdiqlanadi.

26. Ishlar boshqarmasi (xo‘jalik, umumiy bo‘lim) rahbarining yoki mutaxassisning vazifalari quyidagilardan iborat:

ish joylarining mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, elektr va yong‘in xavfsizligi talablariga mos kelishini tekshiradi, aniqlangan kamchiliklar bo‘yicha rahbariyatga bildirishnoma kiritib, ularni bartaraf etish uchun tezkor choralar ko‘radi;

tashkilot binolaridagi muhandislik inshootlari, havo isitish, sovitish va almashtirish, elektr jihozlarga javobgar bo‘lgan yoki ularga texnik xizmat ko‘rsatuvchi barcha rahbarlar hamda texnik xodimlar tomonidan xavfsizlik qoidalari va ishlab chiqarish sanitariyasi me’yorlari talablariga rioya qilinishi, davlat nazorat idoralari va kasaba uyushmasining yozma ko‘rsatmalari bajarilishini ta’minlaydi;

ish joyidagi jihoz va uskunalarning soz holda bo‘lishi va to‘g‘ri ishlatilishini ta’minlaydi;

tegishli xodimlar uchun ish joyida xavfsiz ishlashga oid yo‘riqnomalarni kasaba uyushmasi hamda mehnatni muhofaza qilish xodimi bilan kelishgan holda ishlab chiqadi, tasdiqdan o‘tkazadi va o‘z xodimlarini mazkur me’yoriy hujjatlar bilan ta’minlaydi;

texnik xodimlarni belgilangan muddatlarda ish joyida yo‘l-yo‘riqlardan o‘tkazib boradi;

binoni yong‘in xavfsizligi, evakuatsiya chizmalari, yong‘indan saqlash anjomlari, o‘t o‘chirish vositalari bilan ta’minlaydi va holatini nazorat qiladi;

o‘z vaqtida tegishli nazorat idoralari mutaxassislarini taklif qilib, bug‘ va suv isitish tizimini ichki ko‘riklardan, sinovlardan, tekshiruvdan o‘tkazilishini va ta’mirlanishini ta’minlaydi;

havo almashtirish moslamalari va tizimlarining samarali ishlashini hamda ularning o‘z vaqtida ta’mirlanishini ta’minlaydi;

tegishli kasblarda ishlovchilarni me’yor talablari asosida maxsus kiyim, boshqa shaxsiy himoya va gigiyena vositalariga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlaydi va ta’minlaydi;

jabrlanuvchiga birinchi yordam ko‘rsatilishi va uni tibbiy muassasaga jo‘natishni tashkillashtiradi, agar baxtsiz hodisa yuz bersa, bu haqida tashkilot rahbariyatiga, kasaba uyushmasi va mehnatni muhofaza qilish hamda xavfsizlik texnikasi bo‘yicha mas’ul shaxsga xabar beradi, ish joyidagi vaziyat va jihozlarning holatini hodisa yuz bergan vaqtidagidek saqlab qolinishi (agar bu atrofdagi xodimlarning hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetkazmasa hamda avariyaga olib kelmasa) choralarini ko‘radi.

Davlat nazorat organlari, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi, FVV huzuridagi yong‘in inspeksiyasi, Kasaba uyushmalari hamda mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha vakillari, mehnatni muhofaza qilish xodimlari va jamoatchilik nazorati vakillari tomonidan berilgan ko‘rsatma, taqdimnomalarda qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etilishini ta’minlaydi.

27. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlari xodimlarning vazifalari quyidagilardan iborat:

mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar olish, mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha o‘quvdan va malaka oshirishdan o‘tish;

mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etish;

shaxsiy himoya vositalarini bilish va ulardan to‘g‘ri foydalanish;

insonlar hayoti va sog‘lig‘iga bevosita xavf tug‘diruvchi har qanday vaziyat to‘g‘risida, shuningdek, ish jarayonida yoki u bilan bog‘liq holda sodir bo‘lgan har qanday baxtsiz hodisa haqida ish beruvchini darhol xabardor qilish;

mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, yong‘in xavfsizligi qoidalari va me’yorlari, sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq ish joylarini tashkil etish;

“Kirish”va “Ish joyidagi” yo‘l-yo‘riqlardan o‘tish;

favqulodda holatlarda to‘g‘ri harakatlana bilish;

mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik talablari, ichki mehnat tartibi va mehnat intizomi qoidalariga rioya qilish;

shaxsiy va jamoa himoya vositalarini bilish, ulardan foydalana olish;

shaxsiy gigiyena talablariga rioya qilish;

kishilarning salomatligi va hayotiga xavf solayotgan har qanday vaziyat haqida, shuningdek, ish davomida yoki ish bilan bog‘liq holda yuz bergan har qanday baxtsiz hodisa haqida o‘zining bevosita rahbariga zudlik bilan xabar berish

28. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlari xodimlarining huquqlari quyidagilardan iborat:

mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga mos bo‘lgan ish o‘rniga ega bo‘lishi;

mehnatni muhofaza qilishga oid belgilangan normalar va talablarga muvofiq ish beruvchining mablag‘lari hisobidan shaxsiy himoya vositalari bilan ta’minlanishi;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat tomonidan majburiy ijtimoiy sug‘urta qilinish;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablar buzilganligi oqibatida o‘z hayoti va sog‘lig‘i uchun xavf yuzaga kelgan taqdirda, agar shunday holatlar mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati hamda tekshiruvini amalga oshiruvchi organlar tomonidan tasdiqlansa, ishlarni bajarishni bunday xavf bartaraf etilguniga qadar rad etish;

o‘z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda mehnatda tan jarohati olishi yoki sog‘lig‘iga boshqacha tarzda shikast yetishi munosabati bilan hayotiga yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini ish beruvchidan undirish.

V bob. Mehnatni muhofaza qilish qoidalari buzilganligi uchun javobgarlik

29. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, elektr, yong‘in xavfsizligiga doir qonunlar va boshqa me’yoriy hujjatlar buzilishida aybdor bo‘lgan mansabdor shaxslar va vazirlikning boshqa xodimlari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

30. Xodimlarga ularning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda jarohatlanishi, kasb kasalliklariga chalinishi yoki salomatlikning boshqa xil shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararni to‘lash bo‘yicha munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 11-fevraldagi 60-sonli qarori bilan tasdiqlangan Qoidalar bilan tartibga solinadi.

VI bob. Yakuniy qoidalar

31. Mazkur Nizom O‘zbekiston ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi, Respublika Kengashi hamda O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Davlat mehnat inspeksiyasi bilan kelishilgan.

32. Mazkur nizom tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Ishlab chiqdi:

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha muhandis – Bosh mutaxassisi – X. Xamidov

Kelishildi:

O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi, Respublika kengashi Mehnatni muhofaza qilish bo'yiha bosh mutaxassisi – D. Samarbekov

Kelishildi:

Davlat mehnat inspeksiyasi boshlig'i – O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat mehnat inspektorl – Q. Odinayev

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi**,** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlarida mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish to‘g‘risidagi nizomga 1-ILOVA

TAQDIMNOMA SHAKLI

(tashkilot nomi)

(Mehnat muhofaza qilish xizmatining xodimi yoki mas’ul xodimining ismi, sharifi)

Kimga:

(ish beruvchi yoki mas’ul xodimning ismi, sharifi va lavozimi)

- sonli 20__ yil “___“

T A Q D I M N O M A

O‘zbekiston Respublikasi Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, mehnatni muhofaza qilish qoida va me’yorlariga rioya etish bo‘yicha aniqlangan quyidagi kamchiliklarni bartaraf etishingizni so‘rayman:

T/r	Aniqlangan kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo‘yicha talablar	Bajarish muddati	Izoh

Taqdimnomaning bajarilganligi to‘g‘risida unda ko‘rsatilgan muddatlarda yozma axborotni yuborishingizni so‘rayman.

(Mehnatni muhofaza qilish xizmatidagi xodimning lavozimi) (imzo) (ismi, sharifi)

Taqdimnomani oldim:

(Mansabdor shaxs) (imzo) (ismi, sharifi)

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlarida mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish to‘g‘risidagi nizomga
2-ILOVA

(korxona, tashkilot va muassasaning to‘liq nomi)
(tashkiloti) ning 20 yilning davomida mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha
olib borgan ishlari haqida

MA’LUMOT

Korxona va tashkilotlardagi mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislar soni nafar.

T/r	Ko‘rsatkichlar	Jami
1.	Xodimlar soni:	
2.	mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha rejalashtirilgan tadbirlar soni	
	tadbirlarga sarflanadigan mablag‘ miqdori (ming. so‘m)	
shu jumladan:		
2.1.	mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha (mehnatni muhofaza qilishga doir tadbirlar rejasi va sarf-xarajatlar smetasiga ko‘ra) bitimdagi tadbirlar soni	
	bitim bo‘yicha sarflanadigan mablag‘ miqdori (ming. so‘m)	
2.2.	maxsus kiyim, maxsus poyabzal va shaxsiy himoya vositalari uchun mablag‘ miqdori (ming so‘m)	
2.3.	sut (yoki shunga teng boshqa sut mahsulotlari), davolash-profilaktika oziq-ovqatlari uchun mablag‘ miqdori (ming so‘m)	
2.4.	gigiyena vositalari (sovun, yuvish va (yoki) zararsizlantirish vositalari) uchun mablag‘ miqdori (ming so‘m)	

2.5.	ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sarflanadigan mablag‘ (ming so‘m), ulardan:	
	sug‘urtalanadigan xodimlar soni	
2.6.	dastlabki tarzda (ishga kirayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko‘riklar o‘tkazilishiga sarflanadigan mablag‘ (ming so‘m)	
3.	Mehnat jarayonida sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar soni, jami:	
	O‘lim bilan tugagan baxtsiz hodisalar soni, ulardan:	
3.1.	Vazirlik, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va	

T/r	Ko‘rsatkichlar	Jami
	respublika tashkilotlarining yig‘ilishida ko‘rib chiqilganlari	
	Oqibati og‘ir baxtsiz hodisalar soni, ulardan:	
3.2.	Vazirlik, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlarining yig‘ilishida ko‘rib chiqilganlari	
3.3.	Mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik darajasi belgilangan xodimlar soni	
3.4.	Mehnat jarayonidagi baxtsiz hodisalar tufayli mehnat layoqatini vaqtinchalik yo‘qotgan xodimlar soni	
	mehnatga layoqatsizlik kunlari soni	
4.	Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha saylangan vakillar soni shu jumladan:	
	o‘qitilganlari	

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’lim vazirining
2023-yil 5-iyundagi
149-son buyrug‘iga
2-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlarida mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitishni tashkil qilish va bilimlarni tekshirish to‘g‘risida
NIZOM

Mazkur O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi**,** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlarida mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitishni tashkil qilish va bilimlarni tekshirish to‘g‘risidagi nizom (keyingi o‘rinlarda - Nizom) O‘zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun, Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2017-yil 27-aprelda 246-son qarori bilan tasdiqlangan “Mehnatni muhofaza qilish sohasida qayta tayyorlash va malaka oshirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”, shuningdek, Adliya vazirligida 1996-yil l4-avgustda 272-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitish va bilimlarini tekshirishni tashkil etish to‘g‘risida”gi namunaviy Nizomga asosan ishlab chiqilgan.

Ushbu nizom O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda - Vazirlik), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlarida (keyingi o‘rinlarda - tizim tashkilotlari) barcha xodimlari, shu jumladan, rahbarlar uchun belgilangan dastur asosida mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitish, yo‘l-yo‘riqdan o‘tkazish, bilimlarni tekshirish va qayta attestatsiyadan o‘tkazish tartibini belgilab beradi.

I. Umumiy qism

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlarining barcha xodimlari mazkur nizomda belgilangan tartibda hamda muddatlarda mehnatni muhofaza qilish qoidalari va me’yorlari (“O‘zbekiston Respublikasining mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan xavfsizlik texnikasi, ishlab chiqarish sanitariyasini hisobga olgan holda) bo‘yicha o‘qitilishi, yo‘l-yo‘riqdan o‘tishi, bilimlari tekshirilishi va qayta attestatsiyadan o‘tishlari shart.

2. Mazkur Nizom Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlari rahbarlari, mutaxassislari va texnik xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitish, bilimlarini tekshirishning majburiy tartibini belgilab beradi.

3. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlariga ishga kirgan xodimlar ishlarni xavfsiz olib borish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlardan, tegishli ko‘nikmalardan va bilimlari tekshiruvidan o‘tganlaridan so‘nggina mustaqil ishga qo‘yiladilar.

4. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlaridagi xodimlarni xavfsiz ishlash uslublariga o‘qitishni to‘g‘ri tashkil etish va o‘tkazish uchun umumiy rahbarlik qilish Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarining rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

5. Xodimlarni xavfsiz ishlash uslublariga o‘z vaqtida sifatli yo‘l-yo‘riqlarni berilishi va o‘qitish ustidan nazorat qilish mehnatni muhofaza qilish mutaxassisiga yoki mas’ul xodim zimmasiga yuklatiladi.

II. Rahbar va (Bosh) mutaxassislarni hamda texnik xodimlarni o‘qitish va bilimlarini tekshirish

6. Xodimlarni yo‘l-yo‘rig‘i:

xodimlarning yo‘l-yo‘rig‘i - “Kirish” yo‘l-yo‘rig‘i va ish joyidagi yo‘l-yo‘riqqa bo‘linadi. Ish joyidagi yo‘l-yo‘riq o‘z navbatida birlamchi, davriy va navbatdan tashqari yo‘l-yo‘riqqa bo‘linadi.

7. “Kirish” yo‘l-yo‘rig‘i:

Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlariga ishga kirgan barcha rahbar, mutaxassis va texnik xodimlar hamda boshqa tashkilotlarning shu tashkilotga ishlash uchun safarbar qilingan xodimlari (malakasi, ish staji va tajribasidan qat’i nazar), shuningdek, amaliyotchilar va shogirdlar mustaqil ishni yoki ko‘nikmani boshlagunga qadar kirish yo‘l- yo‘rig‘idan o‘tishlari kerak;

xodimni “Kirish” yo‘l-yo‘rig‘idan mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis yoki uning vazifalari yuklatilgan boshqa xodim tomonidan o‘tkazilishi lozim;

jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi yo‘l-yo‘riq, yong‘in xavfsizligi va boshqa maxsus masalalar bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar tegishli mutaxassislar tomonidan o‘tkaziladi;

“Kirish” yo‘l-yo‘rig‘i dasturi o‘quv materialining aniq mazmuni va ishlab chiqarish talablariga to‘g‘ri keladigan zamonaviy texnik vositalar, ko‘rgazmali qurollar va adabiyotlardan foydalangan holda mehnatni muhofaza qilish xonasida o‘tkazilishi kerak;

“Kirish” yo‘l-yo‘rig‘i bir guruh xodimlar bilan ham alohida-alohida xodimlar bilan ham o‘tkazilishi mumkin. Guruh tarkibi, odatda, 10 kishidan oshmasligi kerak;

“Kirish” yo‘l-yo‘rig‘ini o‘tkazganlik to‘g‘risida ushbu nizomning 1-ilovasida ko‘rsatilgan “Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha kirish yo‘l-yo‘rig‘ini qayd qilish jurnali” ga imzo qo‘ydirilib, yozib qo‘yiladi va xodimni ishga qabul qilish xatida tegishli belgilarni qo‘yish lozim.

8. Ish joyidagi yo‘l-yo‘riq:

“Kirish” yo‘l-yo‘rig‘idan tashqari barcha rahbar, (bosh) mutaxassis va texnik xodimlar “Ish joyidagi yo‘l-yo‘riq” lardan o‘tishlari lozim;

“Ish joyidagi yo‘l-yo‘riq”larni o‘tkazishdan maqsad, har bir xodim ishlashning to‘g‘ri va xavfsiz usullari hamda uslublariga o‘qitishdir. Yo‘l-yo‘riq jarayonida xodimga kompyuter, orgtexnikalar, ofisdagi boshqa texnik vositalar ularning tavsifi va tuzilish xususiyatlari, favqulodda vaziyatlarda xavfsiz harakatlanish qoidalari, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan baxtsiz hodisalar va mikrojarohatlar hamda ish joyini tayyorlash tartibi bilan tanishtirish kerak;

xodimni “Ish joyidagi yo‘l-yo‘riq”dan o‘tkazish bevosita bo‘ysunadigan rahbariga yuklatiladi. Zarur hollarda yo‘l-yo‘riq tegishli mutaxassislar (mehnatni muhofaza qilish mutaxassisi yoki ushbu yo‘nalish bo‘yicha vazifalari yuklatilgan mas’ul xodim) ishtirokida o‘tkaziladi;

bevosita ish joyidagi yo‘l-yo‘riq ishlarni xavfsiz yuritish qoidalari va yo‘riqnomalari asosida Vazir o‘rinbosari (tizim tashkilotlari rahbarlari) tomonidan tasdiqlangan dasturlar bo‘yicha o‘tkaziladi. Bunday yo‘riqnomalar va ularning ro‘yxati Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlari rahbariyati tomonidan kasaba uyushma qo‘mitasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

ishlarni xavfsiz yuritish yo‘riqnomalarini ishlab chiqish mehnatni muhofaza qilish mutaxassisi yoki ushbu yo‘nalish bo‘yicha vazifalari yuklatilgan mas’ul xodimiga yuklatiladi.

9. Dastlabki yo‘l-yo‘riq:

ishga kirayotgan shaxs amaliy o‘qitish (stajirovka)ni tajribali va malakali xodim qo‘lida o‘tashi kerak. Amaliyot uchun xodimni kimga biriktirish tashkilot rahbari buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi, bunda o‘qitish muddati va doimiy nazoratni olib borishi kerak bo‘lgan mas’ul shaxs ko‘rsatiladi;

Dastlabki yo‘l-yo‘riqni o‘tkazganlik to‘g‘risida ushbu nizomning 2-ilovasida ko‘rsatilgan ish joyidagi yo‘l-yo‘riqlarni ro‘yxatga olish daftariga yozib qo‘yiladi.

10. Davriy yo‘l-yo‘riq:

kasbi bo’yicha ish staji va malakasidan qat’iy nazar rahbarlar, (bosh) mutaxassislar va texnik xodimlar kamida **har 6 oyda bir marta** ishlarni xavfsiz yuritish bo‘yicha davriy yo‘l-yo‘riqdan o‘tishlari kerak;

davriy yo‘l-yo‘riqdan maqsad – xodimlar tomonidan mehnatni muhofaza qilish yo‘riqnomalariga asosan bajariladigan asosiy va boshqa ishlarni xavfsiz bajarish bo‘yicha takroriy bilimlarini yangilab va to‘ldirib turish;

davriy yo‘l-yo‘riq alohida yoki guruh bilan (bir turdagi kasblar va ayrim ish turlari bo‘yicha) bo‘lishi mumkin va bo‘linmalar amaliyotidan olingan misollarni suhbat tarzida batafsil muhokama qilib o‘tkazilishi kerak;

biron-bir sababga ko‘ra (ta’til, kasallik, xizmat safari va hokazo) belgilangan vaqtda yo‘l-yo‘riqdan o‘tmagan xodimlar ishga chiqqan kuni yo‘l-yo‘riqdan o‘tishlari kerak;

davriy yo‘l-yo‘riq o‘tkazilganligi to‘g‘risida “Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha ish joyidagi yo‘l-yo‘riqlarni qayd qilish jurnali”ga imzo qo‘ydirilib, yozib qo‘yilishi lozim.

11. Navbatdan tashqari yo‘l-yo‘riq:

ishlarni xavfsiz yuritish bo‘yicha rahbarlar, (Bosh) mutaxassislar va texnik xodimlar quyidagi hollarda navbatdan tashqari yo‘l-yo‘riqdan o‘tkazish kerak;

baxtsiz hodisa yoki favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda;

ishlarni xavfsiz yuritish bo‘yicha yangi qoidalar va yo‘riqnomalar joriy etilganda;

xodimlarni navbatdan tashqari yo‘l-yo‘riqdan o‘tkazish dastlabki va davriy yo‘l-yo‘riqlardagidek bevosita mas’ul ish rahbarlari yoki tegishli mutaxassislar (mehnatni muhofaza qilish mutaxassisi yoki ushbu yo‘nalish bo‘yicha vazifalari yuklatilgan mas’ul xodim) tomonidan amalga oshiriladi;

navbatdan tashqari yo‘l-yo‘riq xuddi boshqa yo‘l-yo‘riqlar kabi, sabablari batafsil ko‘rsatilgan holda “Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha ish joyidagi yo‘l-yo‘riqlarni qayd qilish jurnal” ga imzo qo‘ydirilib, yozib qo‘yiladi.

12. Xodimlarning bilimini tekshirish:

dastlabki yo‘l-yo‘riq va amaliyotdan so‘ng (mustaqil ishga qo‘yilishidan oldin yoki bir ishdan boshqasiga o‘tkazilganda) xodimlar ishlarni xavfsiz yuritish bo‘yicha qoidalar va yo‘riqnomalarni bilishlari tekshirilishi kerak;

bilimlarni tekshirish dastlabki, davriy va navbatdan tashqari tekshirishlarga bo‘linadi;

bilimlarni tekshirishni Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri (tizim tashkilotlari rahbarlari) buyrug‘i bilan belgilanadi va vazir o‘rinbosari (o‘rinbosarlar, bosh mutaxassislar, mehnatni muhofaza qilish mutaxassisi va unga mas’ul xodimlar) raisligidagi komissiya amalga oshiradi.

Zarur hollarda, asosiy ish bo‘yicha qoidalar va yo‘riqnomalarni bilishini tekshirish bilan bir qatorda, Davlat mehnat inspeksiyasi vakili bilan birga xodimning xavfli mehnat sharoitlarida ishlashni bilishi ham tekshirilishi mumkin.

13. Dastlabki bilimlar tekshiruvi:

rahbarlar, (Bosh) mutaxassislar va texnik xodimlar bilimi dastlab tekshirilgandan so‘ng unga bilimi tekshirilgani to‘g‘risida ushbu nizomning 3-ilovasida ko‘rsatilgan yagona shakldagi guvohnoma tegishli tarzda rasmiylashtirilib beriladi.

rahbarlar, (Bosh) mutaxassislar va texnik xodimlar bilimini tekshirish ish joyidagi yo‘riqnomalar asosida mehnatni muhofaza qilish mutaxassisi yoki mas’ul xodimlar tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan biletlar bo‘yicha o‘tkaziladi.

14. Davriy bilimlar tekshiruvi:

barcha xodimlar har bir ish yilidan so‘ng (jadvalga ko‘ra) davriy bilim tekshiruvidan o‘tishlari kerak. Jadvallar ushbu nizomning 4-ilovasida ko‘rsatilgan shaklda har yili mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis va tizim tashkilotlaridagi mehnatni muhofaza qilishga mas’ul xodim tomonidan tuziladi va vazir o‘rinbosari (tizimdagi rahbar) tomonidan tasdiqlanadi.z

15. Navbatdan tashqari bilimlar tekshiruvi.

Navbatdan tashqari xodimlarning bilimini tekshirish quyidagi hollarda o‘tkaziladi:

mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yangi qoida va yo‘riqnomalar kuchga kirganda;

mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha qoida va yo‘riqnomalarga rioya qilinmaganda;

16. Bilimlar tekshiruvining natijalari rahbarlar va (Bosh) mutaxassislar hamda texnik xodimlar bilimini tekshirishni ro‘yxatga olish ushbu nizomning 5-ilovasida ko‘rsatilgan daftarida rasmiylashtiriladi. Tekshirilayotgan xodimlarning bilimini baholashdan tashqari (yaxshi, qoniqarli, qoniqarsiz) rahbarlar, (Bosh) mutaxassislar va texnik xodimlarni mustaqil ishga qo‘yish mumkinligi to‘g‘risida xulosa beriladi.

17. Agar tekshiruv vaqtida xodimlarning bilimi qoniqarsiz ekanligi aniqlansa, u mustaqil ishga qo‘yilmaydi va ikki haftalik muddat ichida qayta tekshiruvdan o‘tkaziladi.

18. Uzrsiz sababli qayta bilim tekshiruviga kelmaslik yoki tekshiruvga tayyorlanmasdan kelish mehnat intizomini buzish sifatida ko‘riladi. Bunday qoida buzarliklarga yo‘l qo‘ygan rahbarlar, (bosh) mutaxassislar va texnik xodimlarga nisbatan mehnat qonunlari va ichki mehnat tartibi qoidalarida nazarda tutilgan jazo choralari qo‘llanilishi mumkin.

III. Rahbarlar va mutaxassislarni o‘qitish hamda bilimlarini tekshirish

19. Rahbarlar va mutaxassislarning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilim saviyasini oshirish uchun boshqaruv idoralari va korxonalarda davlat nazorat idoralari, O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi, oliy o‘quv dargohlari va mutaxassislarni jalb etgan holda kurslar, seminarlar, ma’ruzalar, maslahat berish ishlari tashkil qilinadi.

20. Xodimlar ishga tayinlanganda Vazir (tizim tashkilotlari rahbarlari) tomonidan quyidagilar:

unga topshirilgan ish joyida (boshqarma, bo‘lim, guruh, laboratoriya) mehnat sharoitlari va mehnatni muhofaza qilish holati bilan;

xodimlarni xavfli va zararli ishlab chiqarish omillaridan himoyalashda qo‘llaniladigan vositalar to‘g‘risida;

ish joyida jarohatlanish va kasb kasalliklarini tahlil qilish bilan;

mehnat sharoitlarini va mehnatni muhofaza qilishni yaxshilashga doir kerakli chora-tadbirlarning ro‘yxati, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha amaliy materiallar va lavozim majburiyatlari bilan tanishtirilishi kerak.

21. Rahbarlar va mutaxassislarning mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha bilimlarini tekshirishni Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarining mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha Doimiy faoliyat

ko‘rsatuvchi komissiyasi (keyingi matnlarda “DFKK”deb yuritiladi) o‘tkazadi. Bu tekshiruv mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilimlar tekshiruvidan o‘tishi lozim bo‘lgan rahbar va mutaxassislarning lavozim ro‘yxatiga muvofiq o‘tkaziladi (6-ilova).

22. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarining DFKKlariga ularning rahbarlari (yoki o‘rinbosari) boshchilik qilishadi.

23. Imtihonlarni tashkil etish va o‘tkazish DFKIK raislariga yuklatiladi. Imtihonlar tasdiqlangan jadvalga ko‘ra qabul qilinadi. Bu jadval imtihonlar boshlanishidan bir oy oldin barcha imtihon komissiyalarining a’zolariga yuborilgan bo‘lishi lozim.

Imtihonlarning o‘tkazilish kuni va joyi to‘g‘risida imtihon topshiruvchi kamida 15 kun oldin ogohlantirilishi kerak.

Komissiya tarkibi uch kishidan kam bo‘lgan hollarda imtihonlarni o‘tkazish mumkin emas.

24. Imtihon komissiyalarining tarkibiga kiritilgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlari rahbarlari va mas’ul mutaxassislari Vazirlikning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha DFKK imtihonlaridan o‘tganlaridan so‘ng o‘zlarining komissiyalari ishida ishtirok etishlari mumkin.

25. DFK komissiyasi tomonidan Vazirlik, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlari boshqarma boshliqlari, (Bosh) mutaxassislar va texnik xodimlarning quyidagilar borasidagi bilimlarini tekshirishadi:

O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Mehnat kodeksi” va mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha boshqa qonun hamda me’yoriy hujjatlar;

mehnat xavfsizligi standartlarining tizimi;

elektr bilan jarohatlanishning oldini olishga doir asosiy talablar;

favqulodda holatlar yuz berganda xodimlarning qay darajada tayyorligi va xatti-harakatlari;

sanitariya va shaxsiy gigiyenaning asosiy talablari;

mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnomalar;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizom;

ish jarayonlarini xavfsiz yuritishni ta’minlaydigan lavozim yo‘riqnomalari va ish tartiblari;

shaxsiy himoya vositalari (SHHV)ni tayinlash va qo‘llash, SHHV-ni berish tartibi va me’yorlari, ulardan foydalanish muddati;

mehnat shartnomasi, ish vaqti va dam olish vaqtining tartibi, ayollar va 18 yoshga to‘lmagan shaxslar mehnatini muhofaza qilish bilan bog‘liq imtiyozlar va to‘lovlar;

jabrlanuvchilarga birinchi tibbiy yordamni ko‘rsatish usullari.

26. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarining rahbarlari va (Bosh) mutaxassislari hamda texnik xodimlari uchun imtihon biletlari mehnat qonunchiligi talablari doirasida ishlab ishlab chiqiladi va DF-KKlarining raislari tomonidan tasdiqlanadi.

27. Mehnatni muhofaza qilishga doir bilimlarni tekshirishning quyidagi turlarga belgilanadi:

dastlabki, davriy va navbatdan tashqari.

28. Dastlabki bilimlar tekshiruvi rahbar, mutaxassis va texnik (haydovchi, farrosh va boshqalar) lavozimiga ishga tayinlangandan so‘ng kamida bir oy muddat ichida ular tegishli imtihon komissiyasida mehnatni muhofaza qilishga doir bilimlarining dastlabki tekshiruvidan o‘tishlari kerak.

29. Davriy bilimlar tekshiruvi texnik xodimlar uchun bir yilda kamida bir marta va rahbarlar, mutaxassislar uchun **uch yilda kamida bir marta** o‘tkazilishi kerak.

30. Navbatdan tashqari bilimlar tekshiruvi:

6-ilovaga muvofiq lavozimlar ro‘yxatiga kiritilgan Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarining boshqarma boshliqlari, (bosh) mutaxassislari va texnik xodimlari quyidagi hollarda:

mehnatni muhofaza qilishga doir yangi yoki qayta ishlangan me’yoriy hujjatlar kuchga kirganda;

xodim mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha qo‘shimcha bilimga ega bo‘lishi kerakligi talab qilinadigan boshqa ishga o‘tkazilganda yoki boshqa lavozimga tayinlanganda;

guruhiy, o‘lim bilan tugagan yoki oqibati og‘ir baxtsiz hodisalarga yo‘l qo‘yilganda, shuningdek favqulodda vaziyatlar yuz berganda;

davlat nazorat idoralarining talabiga ko‘ra;

ishda bir yildan ortiq tanaffus bo‘lganda mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha navbatdan tashqari bilimlar tekshiruvidan o‘tishlari kerak.

31. Bilimlar tekshiruvining natijalari imtihon bayonnomalarda rasmiylashtiriladi, va imtihon komissiyasining raisi va a’zolari tomonidan imzolanadi (5-ilova).

Bilimlar tekshiruvining imtihon bayonnomalari mehnatni muhofaza qilish mutaxassisi yoki Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasida kamida 6 yil saqlanadi.

32. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarining xizmat ko‘rsatuvchi bo‘linmalaridagi xodimlar mehnatni muhofaza qilish qoidalari bo‘yicha imtihonlardan o‘tgandan so‘ng, ularga guvohnomalar beriladi. Bu guvohnomalar imtihon komissiyasining raisi (rais o‘rinbosari) va komissiya a’zosi - davlat mehnat inspektori tomonidan imzolanadi (3-ilova).

33. Mehnatni muhofaza qilish imtihonlarida qoniqarsiz javob bergan xodim, tashkilot rahbarlari yoki mutaxassisi bir oy muddat ichida imtihonlarni qayta topshirish sharti bilan o‘z lavozimida qoldirilishi mumkin.

Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha imtihonni qayta topshirmagan xodimning imtihon materiallari o‘z lavozimiga muvofiqligi to‘g‘risida masalalarni hal qilish uchun tashkilotning attestatsiya komissiyasiga topshiriladi.

Imtihon komissiyalarining qarori bilan bog‘liq nizolar O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

34. Mehnatni muhofaza qilishga doir bilimlar tekshiruvini tashkil qilish va o‘tkazish Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarining rahbarlariga yuklatiladi.

35. Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilimlarni tekshirishdan bo‘yin tovlagan rahbarlar va mutaxassislar hamda texnik xodimlar ishdan chetlatiladi hamda ularga nisbatan mazkur Nizomning 33-bandida ko‘zda tutilgan choralar qo‘llaniladi.

V bob. Yakuniy qoidalar

36. Mazkur Nizom O‘zbekiston ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi, Respublika Kengashi hamda O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Davlat mehnat inspeksiyasi bilan kelishilgan.

37. Mazkur nizom tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Ishlab chiqdi:

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha muhandis – Bosh mutaxassisi – X. Xamidov

Kelishildi:

O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi, Respublika kengashi Mehnatni muhofza qilish bo'yicha bosh mutaxassisi – D. Samarbekov

Kelishildi:

Davlat mehnat iaspeksiyasi boshlig'i - O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat mehnat inspektori – Q. Odinayev

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlarida mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitishni tashkil qilish va bilimlarni tekshirish to‘g‘risida nizomga
1-ILOVA

Titul varag‘i	
“ ”	*(Idora, tashkilot nomi)* Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha Kirish yo‘l-yo‘rig‘ini qayd qilish jurnali 20 yilda boshlangan

Yo‘l-yo‘riq sanasi	Yo‘l-yo‘riq oluvchining familiya, ism, sharifi	Kasbi, lavozimi	Yo‘l-yo‘riq oluvchini boradigan bo‘lim yoki boshqarma nomi	Imzolar	
				Yo‘l-yo‘riq oluvchi	Yo‘l-yo‘riq beruvchi
1	2	3	4	5	6

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlarida mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitishni tashkil qilish va bilimlarni tekshirish to‘g‘risida nizomga
2-ILOVA

Titul varag‘i	
	(Korxona, tashkilot nomi) Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha ish joyidagi yo‘l-yo‘riqni qayd qilish jurnali
	(Boshqarma yoki bo‘ linma nomi)
“”	20 yilda boshlangan

1-bet
Xodimlarning ro‘yxati

Familiya, ism, sharifi	Kasbi, lavozimi	Yo‘l-yo‘riqlar qayd etilgan varaq	Izoh
1	2	3	4

Familiya, ismi, sharifi
Kasbi (lavozimi)

Yo‘l-yo‘riq sababi ko‘rinishi. O‘tkazilgan sanasi.	Yo‘l-yo‘riq berish mavzusi (o‘tkazilgan yo‘l-yo‘riq bo‘yicha yo‘riqnoma raqami)	Imzol Yo‘l-yo‘riq oluvchi	Yo‘l-yo‘riq beruvchi
1	2	4	5

Xodim uchun qo‘llanma

1. Ish joyida xodimning guvohnomasi o‘zida bo‘lishi shart.

2. Xavfsiz ishlash usullarining qoidalarini bilishlari texnik xodimlardan har yili, rahbar va (Bosh) mutaxassislardan 3 yilda bir marta tekshiriladi.

3. Navbatdan tashqari bilimlar tekshiruvi quyidagi hollarda o‘tkaziladi:

texnologik jarayon o‘zgarganda, yangi asbob-uskunalar tatbiq qilinganda, shuningdek, mehnat xavfsizligi bo‘yicha yangi qoidalar va yo‘riqnomalar joriy etilganda;

xodim tomonidan xavfsizlik qoidalariga rioya qilinmaganda va Nizomda ko‘zda tutilgan boshqa hollarda.

4. Komissiya raisining imzosi bo‘lmagan, shuningdek, navbatdagi tekshiruvning muddati o‘tib ketgan guvohnoma bekor deb hisoblanadi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlarida mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitishni tashkil qilish va bilimlarni tekshirish to‘g‘risida nizomga
4-ILOVA

“Tasdiqlayman”
20__yil “ ”

20 yil uchun bilimlarni tekshirish
J A D V A L I

Familiyasi, ismi, sharifi	Kasbi (lavozimi)	Tekshiruv sanasi			Izoh
		Oldingi	Reja bo‘yicha	malda	
1	2	3	4	5	6

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlarida mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitishni tashkil qilish va bilimlarni tekshirish to‘g‘risida nizomga
6-ILOVA

Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilimlar tekshiruvidan o‘tishi shart bo‘lgan rahbarlar, mutaxassislar va texnik xodimlar lavozimlarining
R O‘ Y X A T I

T/P	**Imtihon komissiyalarining nomi va ularning tarkibi**	**Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilimlar tekshiruvidan o‘tishi shart bo‘lgan rahbar va mutaxassislarning ro‘yxati**
1	O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi komissiyasi raisi: Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosarlaridan biri. Komissiya raisi o’rinbosari: A’zolari: - Kasaba uyushmasi qo‘mita raisi; - Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha muhandis – Bosh mutaxassis; - Boshqarma rahbari (bosh mutaxassis);	Vazirlik, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlari rahbarlari, o‘rinbosarlari) boshqarma va bo‘lim boshliqlari, o‘rinbosarlari va mutaxassislari hamda mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mas’ullar va texnik xodimlar.

2	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlaridagi doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi komissiyasi tarkibi: Komissiya raisi: Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlari rahbarlari yoki o‘rinbosari. A’zolari: 1. Rahbar o‘rinbosari (bosh mutaxassis); 2. Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mas’ul.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlari bo‘lim boshliqlari, mutaxassislar va texnik xodimlar.

Izoh: Uzrli sabablarga ko‘ra komissiya ishida qatnasha olmagan Doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi komissiya a’zosining o‘rniga shu boshqarma yoki tashkilotning boshqa mutaxassisi qatnashish huquqiga ega.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlarida mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'qitishni tashkil qilish va bilimlarni tekshirish to'g'risida nizomga
7-ILOVA

"KIRISH" YO'L-YO'RIG'I" DASTURI NAMUNASI

1. Tashkilot haqida umumiy ma'lumot.

2. Mehnatni muhofaza qilish.

Mehnatni muhofaza qilish standartlari tizimi (SSBT) standartlari haqida umumiy ma'lumot. Ish vaqti va dam olish vaqti. Ayollar va yoshlar mehnatini muhofaza qilish. Davlat nazorati, ichki va jamoatchilik nazorati. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish tartibi. Ichki mehnat qoidalari.

3. Xavfsizlik choralari.

Xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari va ulardan himoyalanish usullari. Ishda baxtsiz hodisalar va kasallanishning asosiy sabablari.

Xavfsizlik, himoya, signalizatsiya qurilmalari. Ranglar va xavfsizlik belgilari.

Elektr tokining inson tanasiga ta'siri. Shikastlanish turlari. Elektr toki urishi xavfini oshiradigan shartlar. Elektr tokidan shikastlanishining oldini olishning asosiy choralari.

Ish joyini tashkil etish va saqlash uchun xavfsizlik talablari.

4. Sanoat sanitariyasi.

Tashkilot muhitining asosiy sanitariya-gigiyena omillari.

Mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha asosiy chora-tadbirlar (texnik, tashkiliy, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika). Shamollatishning maqsadi va qurilmasiMehnatni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarning umumiy tizimida yoritishning o'rni.

Shovqinning zararli ta'sirini kamaytirish uchun terapevtik va profilaktika choralari.

5. Xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning shaxsiy himoya vositalari, ulardan foydalanish normalari va qoidalari. SSBT standartlarida himoya vositalariga qo'yiladigan talablar.

6. Sanitariya kiyimlari, sanitariya poyabzallari va sanitariya-texnik vositalarga qo'yiladigan talablar. Shaxsiy gigiyena qoidalari.

7. Korxonada yong'in xavfsizligining asosiy talablari.

8. Mexanik shikastlanishlar, termik kuyishlar, kuyishlar, zaharlanish, ko'z jarohatlari, elektr shikastlanishlarida jabrlanuvchiga birinchi yordam ko'rsatish.

9. Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzganlik uchun xodimning javobgarligi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlarida mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitishni tashkil qilish va bilimlarni tekshirish to‘g‘risida nizomga
8-ILOVA

ISH JOYIDAGI YO‘R-YO‘RIQ BERISH DASTURI NAMUNASI

1. Tashkilot haqida umumiy ma’lumot. Asosiy xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari.

2. Ish joyini xavfsiz tashkil etish va saqlash.

3. Jihozlarning xavfli joylari, xavfsizlik moslamalari va to’siqlar, blokirovkalash va signalizatsiya tizimlari.

4. Ishga tayyorgarlik ko’rish tartibi (kompyuter va orgtexnikalarni sozligini tekshirish).

5. Ishni xavfsiz bajarish usullari; xavfli vaziyat yuzaga kelganda dastlabki harakatlar.

6. Ish joyida shaxsiy himoya vositalari va ulardan foydalanish qoidalari.

7. Xodimlarning elektr xavfsizligini ta’minlashning asosiy talablari.

8. Xodimlarning tashkilot hududida xavfsiz harakatlanish sxemasi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Nufuzli xalqaro olimpiadalarda O‘zbekiston terma jamoasi ishtirokini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Nufuzli xalqaro olimpiadalarda O‘zbekiston terma jamoasi ishtirokini ta’minlashda matematika, fizika, kimyo, biologiya, informatika fanlaridan Xalqaro olimpiada tashkiliy qo‘mitalarining 2023-yil uchun yo‘llagan rasmiy murojaatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

64-Xalqaro matematika olimpiadasi (IMO)da ishtirok etuvchi O‘zbekiston terma jamoasi a’zolari va rahbarlari ro‘yxati;

34-Xalqaro biologiya olimpiadasi (IBO)da ishtirok etuvchi O‘zbekiston terma jamoasi a’zolari va rahbarlari ro‘yxati;

55-Xalqaro kimyo olimpiadasi (IChO)da ishtirok etuvchi O‘zbekiston terma jamoasi a’zolari va rahbarlari ro‘yxati;

53-Xalqaro fizika olimpiadasi (IPhO)da ishtirok etuvchi O‘zbekiston terma jamoasi a’zolari va rahbarlari ro‘yxati;

35-Xalqaro informatika olimpiadasi (IOI)da ishtirok etuvchi O‘zbekiston terma jamoasi a’zolari va rahbarlari ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Quyidagilar inobatga olinsin:

O‘zbekiston terma jamoasi o‘quvchilari va terma jamoa rahbarlari:

a) Matematika fanidan 2023-yilning 18-iyun – 6-iyul kunlari Xitoy Xalq Respublikasida dunyoning 25 ta mamlakati terma jamoasi o‘quvchilari uchun tashkil qilinadigan xalqaro darajadagi olimpiadaga tayyorgarlik jarayonlarida hamda 2023-yil 2-13-iyul kunlari Yaponiya davlatida bo‘lib o‘tadigan 64-Xalqaro matematika olimpiadasida (IMO);

Biologiya fanidan 2023-yil 3-12-iyul kunlari Birlashgan Arab Amirliklarida bo‘lib o‘tadigan 34-Xalqaro biologiya olimpiadasida (IBO);

Kimyo fanidan 2023-yil 16-25-iyul kunlari Shvetsariya davlatida bo‘lib o‘tadigan 55-Xalqaro kimyo olimpiadasida (IChO);

Fizika fanidan 2023-yil 10-17-iyul kunlari Yaponiya davlatida bo‘lib o‘tadigan 53-Xalqaro fizika olimpiadasida (IPhO);

Informatika fanidan 2023-yil 28-avgust – 4-sentabr kunlari Vengriya davlatida bo‘lib o‘tadigan 35-Xalqaro informatika olimpiadasida (IOI) ishtirok etadi.

b) Xalqaro olimpiadalarda o‘quvchilar ishtirokini ta’minlash bilan bog‘liq, shu jumladan, sutkalik, yashash, transport va viza xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hisobidan qoplanadi.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari terma jamoa tarkibiga kiritilgan o‘quvchilarning xavfsizligini ta’minlagan holda, kuzatuvchi rahbarligida Toshkent shahriga kelib-ketishlarini hamda zarur hollarda Toshkent viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markaziga joylashtirilishini ta’minlasin.

5. Olimpiada ishtirokchilarining Toshkent shahriga xavfsiz kelib-ketishlari uchun biriktirilgan kuzatuvchilarning xizmat safari bilan bog‘liq barcha xarajatlari xodimlarning asosiy ish joyidan qoplansin.

6. Fan olimpiadalarini o‘tkazish va iqtidorli o‘quvchilarni saralash boshqarmasi (U.Raxmonov)ga:

terma jamoa a’zolarining xalqaro olimpiadalarda ishtiroki mobaynida xalqaro olimpiadalar nizomiga, sanitariya-gigiyena hamda yong‘in va texnika xavfsizligi qoidalariga qat’iy rioya etilishini nazorat qilish;

xalqaro olimpiada natijalari bo‘yicha vazirlik rahbariyatiga ma’lumot berish vazifalari yuklatilsin.

7. Mazkur buyruqning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan sarf-xarajatlar vazirlikning 2023-yil uchun markazlashgan tadbirlarning xarajatlar smetasi mablag‘lari doirasida amalga oshirilsin.

8. G‘oliblikni qo‘lga kiritgan barcha o‘quvchilar va ularning ustozlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari, akademik litsey va kasb-hunar maktablari o‘quvchilari o‘rtasida fan olimpiadalarini tashkil etish, o‘tkazish hamda xalqaro olimpiadalar ishtirokchilarini saralash va g‘oliblarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida nizomda belgilangan pul mukofotlari bilan har yili an’anaviy tarzda avgust oyida tashkil qilinadigan xalqaro olimpiada g‘oliblarini taqdirlash marosimida rag‘batlantirilsin.

9. Davlat xaridlari bo‘limi (J.Mannonov) xalqaro olimpiadalarda ishtirok etish bilan bog‘liq xaridlarni amalga oshirsin.

10. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F.Jamuratova) 64-Xalqaro matematika olimpiadasi (IMO), 34-Xalqaro biologiya olimpiadasi (IBO), 55-Xalqaro kimyo olimpiadasi (IChO), 53-Xalqaro fizika olimpiadasi (IPhO), 35-Xalqaro informatika olimpiadasi (IOI)da qo‘shimcha bir nafar terma jamoa rahbarlarining ishtirok etishi bilan bog‘liq to‘lovlar hamda terma jamoa rahbarlarining viza, aviachipta, tibbiy sug‘urta, kunlik xarajatlari Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan 2023-yilda o‘tkaziladigan markaziy tadbirlar rejasida nazarda tutilgan tegishli mablag‘lar doirasida amalga oshirilishi ta’minlansin.

11. Axborot xizmati (D.Sobirova) terma jamoalarning xalqaro olimpiadalarda ishtirok etish jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish va vazirlikning veb-saytiga joylashtirish choralarini ko‘rsin.

12. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 5-iyun,
150-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida inklyuziv ta’limni takomillashtirish bo‘yicha davlat xaridlarini amalga oshirish to‘g‘risida

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish, ularning ta’lim olish huquqini kafolatlash va ta’minlash hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida **buyuraman:**

1. “Zamin” Xalqaro jamoat fondi, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi hamda “Digital Generation Uzbekistan” nodavlat notijorat tashkilotining “Inklyuziv ta’lim” qo‘shma loyihasi hamda “Zamin” Xalqaro jamoat fondi, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligining 2023-yil 2-martdagi “Men eshitishni xohlayman!” qo‘shma loyihalari doirasida 2023-yilda belgilangan vazifalar ijrosi bo‘yicha tasdiqlangan “Yo‘l xaritalari” ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

“Inklyuziv ta’lim” hamda “Men eshitishni xohlayman!” qo‘shma loyihalarini (keyingi o‘rinlarda - Loyihalar) amalga oshirish maqsadida jalb etiladigan xalqaro tashkilotlar yoki maslahatchilar xizmatini xarid qilish bo‘yicha Xarid komissiyasi va Ekspert guruhi tarkibi 1 va 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xarid komissiyasi (T.Komilov)ga:

Davlat xaridlarni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda mazkur maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida o‘tkazilishini ta’minlash;

tasdiqlangan texnik talablar hamda o‘rganilgan maslahatchilar xizmatining bugungi kundagi bozor narxlariga muvofiq xaridlarni amalga oshirish;

Davlat xaridlarga oid ma’lumotlarni oshkor qilmaslik, qonunga zid harakatlarga yo‘l qo‘yilmaslikni ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Ekspert guruhi (D.Kenjayev)ga:

2023-2024-o‘quv yilidan tajriba-sinov tariqasida inklyuziv ta’lim joriy etiladigan umumta’lim maktablar ro’yxatini shakllantirish;

Loyihalarni amalga oshirish yuzasidan jalb etiladigan xalqaro tashkilotlar yoki maslahatchilar xizmati xaridi bo‘yicha texnik talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

tasdiqlangan texnik talablarga muvofiq xalqaro tashkilotlar yoki maslahatchilar xizmatining bugungi kundagi bozor narxlarini o‘rganish vazifalari yuklatilsin.

5. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda vazirlikning tegishli tarkibiy bo‘linmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

6. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 9-iyun,
160-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2023-yil 9-iyundagi 160-sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

“Inklyuziv ta’lim” hamda “Men eshitishni xohlayman!” qo‘shma loyihalarini amalga oshirish maqsadida jalb etiladigan xalqaro tashkilotlar yoki maslahatchilar xizmatini xarid qilish bo‘yicha Xarid komissiyasi TARKIBI

1. KOMILOV Temur Kalandarovich – Vazir o‘rinbosari, xarid komissiyasi raisi
2. ASRORov Xurshid Qobilovich – Yuridik bo‘lim boshlig‘i, a’zo
3. XOLIQOV Suxrob Tursunaliyevich – Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i a’zo
4. SIRADJEV Ilxom Tohirovich – Moliya-iqtisod departamenti direktori, a’zo
5. SADRIDDINOVA Dilfuza Ruzikulovna – Strategik rivojlantirish va xalqaro reytinglar boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, a’zo
6. KUCHKAROVA Nargiza Sharafjanovna – Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
7. AXUNOVA Laylo Baxadirovna – Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti yetakchi mutaxassisi, a’zo
8. TOSHMIRZAYEVA Gulfira Erkin qizi – Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘limi yetakchi mutaxassisi, a’zo
9. GAYNUTDINOVA Liliya Rifkatovna – O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori, a’zo
10. MANNONOV Jasur Ibodulla o‘g‘li – Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi bosh mutaxassisi, kotib (ovoz berish huquqiga ega emas)

Izoh: Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2023-yil 9-iyundagi 160-sonli buyrug‘iga
2-ILOVA

“Inklyuziv ta’lim” hamda “Men eshitishni xohlayman!” qo‘shma loyihalarini amalga oshirish maqsadida jalb etiladigan xalqaro tashkilotlar yoki maslahatchilar xizmatini xarid qilish bo‘yicha Ekspert guruhi TARKIBI

1. KENJAYEV Dilshod Mutalibovich – Vazir o‘rinbosari, Ekspert guruhi raisi
2. XOLIQOV Suxrob Tursunaliyevich – Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i, a’zo
3. TOSHMIRZAYEVA Gulfira Erkin qizi – Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘limi yetakchi mutaxassisi, a’zo
4. GAYNUTDINVA Liliya Rifkatovna – O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori, a’zo
5. AXUNOVA Laylo Baxadirovna – Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti yetakchi mutaxassisi a’zo
6. KUCHKAROVA Nargiza Sharafjanovna – Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
7. ALIMOVA Gulmira Kabuljanovna – O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi metodisti, a’zo
8. SADRIDDINOVA Dilfuza Ruzikulovna – Strategik rivojlantirish va xalqaro reytinglar boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, a’zo

Izoh: Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

Kiritdi:	**Kelishildi:**
Davlat xaridlarini tashkil etish Vazir o‘rinbosari bo‘limi J.Mannonov	
	D.Kenjayev
Vazir o‘rinbosari	
	T.Komilov
Vazir kotibiyati boshlig‘i	
	J.Shamshiyev
Yuridik bo‘lim boshlig‘i	
	X.Asrorov
Moliya-iqtisod departamenti direktori	
	I.Siradjev
Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i	S.Xoliqov

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

2023-2024-o‘quv yili uchun ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-oktabrdagi 646-son qarori bilan tasdiqlangan Ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablarda ta’lim berish uchun boshqa hududlardan o‘qituvchi-pedagoglarni jalb etish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 9-bandi ijrosini ta’minlash hamda ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablarda ta’lim berishni yaxshilash uchun boshqa hududlardan tajribali mutaxassislarni jalb etish maqsadida **buyuraman:**

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari tomonidan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 18-maydagi 130-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatini shakllantirish bo‘yicha baholash mezonlariga asosan umumta’lim maktablari faoliyati baholanganligi hamda baholash natijalari asosida ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxati shakllantirilganligi inobatga olinsin.

2. 2023-2024-o‘quv yili uchun ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari:

5 kun muddatda tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari tomonidan ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar to‘g‘risida yuqorida qayd etilgan nizomda nazarda tutilgan tegishli ma’lumotlarni ustozfondi.uz elektron platformasiga joylashtirilishi;

ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablarga tegishli o‘qituvchi-pedagoglarni jalb etilishi;

o‘qituvchi-pedagoglarni jalb qilishda ularga berilgan imtiyozlar va yengilliklarni hamda murojaat qilish tartibi, muddati va taqdim etiladigan hujjatlar haqida tushuntirish ishlarini amalga oshirilishi;

ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablarda dars berish istagini bildirgan o‘qituvchi-pedagoglarni saralash bo‘yicha nizomda belgilangan tartibda ishchi guruhlar tuzilishi;

ishchi guruhlar tomonidan saralash jarayonlarini yuqorida qayd etilgan nizom talablari asosida hamda shaffof va adolatli o‘tkazilishini nazorat qilinishi;

5-avgustga qadar ishchi guruh tomonidan o‘tkazilgan o‘rganish va suhbat natijalariga ko‘ra saralangan o‘qituvchi-pedagoglar haqidagi ma’lumotlarni ustozfondi.uz elektron platformasiga kiritilishi;

saralashdan muvaffaqiyatli o‘tib, ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablarga ishga kirish bo‘yicha 25-avgustga qadar ariza yozgan o‘qituvchi- pedagoglarni qonunchilikda belgilangan tartibda maktab direktorlari tomonidan ishga qabul qilinishi;

saralashdan muvaffaqiyatli o‘tib, ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablarga ishga qabul qilingan o‘qituvchi-pedagoglarning maxsus ustamalarini o‘z vaqtida to‘lab borilishini ta’minlasin.

4. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi (R.Musurmonov), “Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi” DUK (F.Mirbabayev) ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ma’lumoti kiritiladigan ustozfondi.uz elektron platformasini uzluksiz ishlashi va texnik jihatdan qo‘llab- quvvatlab borilishini ta’minlasin.

5. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Z.Togayeva) ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablardagi pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqqan holda, boshqa hududlardan jalb qilinadigan o‘qituvchi-pedagoglarning mehnat qonunchiligiga muvofiq ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olsin.

6. Axborot xizmati (D.Sobirova) vazirlikning veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida:

3 kunlik muddatda ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatini;

belgilangan maktablarda tajriba-sinov jarayonlarini samarali tashkil etish, doimiy nazoratga olish va muvofiqlashtirib borish;

har chorak yakuni bo‘yicha tajriba-sinov xulosalarini vazirlikka taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

10. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 27-iyun,
192-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2023-yil 27-iyundagi
192-sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

Yuqori sinf o‘quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha tajriba-sinov o‘tkazish tartibi

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib:

umumta’lim maktablarida ta’lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlarni va ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash, o‘quvchilarning qiziqishlarini inobatga olgan holda ta’lim berishni;

yuqori sinf o‘quvchilarim fanlarga ixtisoslashuvini kengaytirish hamda ularni oliy o‘quv yurtlariga yo‘naltirish uchun keng imkoniyatlar yaratishni belgilaydi.

II. Tajriba-sinovni amalga oshirish tartibi

2. Tajriba-sinov ishlari 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab har bir hududdan tanlab olingan tajriba-sinov maktablarining 10-sinflarida amalga oshiriladi.

Bunda, tanlov sinfidagi o‘quvchilar soni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida Nizom”ga muvofiq bo‘lishi lozim.

3. Umumiy o‘rta ta’lim maktabida tanlov sinfini tashkil etishda o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyati hamda yuqori malakali, tajribali o‘qituvchilarning mavjudligi inobatga olinadi.

Agarda, tegishli yo‘nalish bo‘yicha so‘rovnoma natijalariga ko‘ra o‘quvchilar tomonidan qiziqish bildirilmasa, tanlov fani joriy etiladigan sinf tashkil etilmaydi.

4. Umumiy o‘rta ta’lim maktabida tanlov fani joriy etiladigan sinfni tashkil etish uchun quyidagi yo‘nalishlar tavsiya etiladi:

matematika – fizika yo‘nalishi;

kimyo – biologiya yo‘nalishi;

ona tili – chet tili yo‘nalishi;

matematika – chet tili yo‘nalishi.

Keyingi o‘quv yilidan boshlab yuqori sinf o‘quvchilarining oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirishlari uchun imkoniyatlar yaratish ham-

da ularning qiziqishlariga qarab yangi yo‘nalishlar (*ijtimoiy-gumanitar, amaliy fanlar va boshqa*) ochilishi mumkin.

5. Tanlov fani joriy etiladigan sinfda ta’lim jarayoni tegishli yo‘nalishi bo‘yicha alohida o‘quv reja asosida tashkil etiladi.

mazkur o‘quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

6. Tanlov fanlari joriy etiladigan sinf yo‘nalishi 10-sinf o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish orqali aniqlanadi. Yo‘nalishni aniqlashda o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazilayotganda ota-onalar ham farzandlari bilan birga ishtirok etishi mumkin. Bunda, bir nafar o‘quvchi faqat bitta yo‘nalishni tanlaydi.

7. O‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish va natijasini umumlashtirish uchun maktabda tanlov komissiyasi tuziladi.

Tanlov komissiyasi tarkibiga o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, psixolog, amaldagi sinf rahbari, fan metod birlashma rahbari va ota-onalar qo‘mitasi raisi kiritiladi;

bunda, tanlov komissiyasi a’zolari tarkibiga o‘quvchilarning ota-onalari va tegishli yo‘nalishdagi fan o‘qituvchilari kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi (ota-onalar qo‘mitasi raisi va fan metod birlashmalari rahbarlari bundan mustasno).

8. So‘rovnomani o‘tkazish va natijalarini umumlashtirish jarayonining shaffofligini ta’minlash, jamoatchilik nazoratini o‘rnatish maqsadida ushbu jarayonlarda maktabning Kuzatuv kengashi a’zolari kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi mumkin.

9. So‘rovnoma natijasi tahlil qilinib, tayyorlangan ma’lumot maktab direktoriga taqdim etiladi.

10. So‘rovnoma natijasida tegishli tanlov fani joriy etiladigan sinfda o‘qishni xohlagan o‘quvchilar soni **35 nafardan oshib** ketsa, o‘quvchilar maktab tomonidan tashkil etiladigan tegishli fan bo‘yicha sinov natijalari asosida qabul qilinadi.

Agar, maktabda sinov tashkil etiladigan bo‘lsa, direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari rahbarligida ishchi guruh (*3-5 nafaardan iborat*) tuziladi. Ishchi guruh tanlangan yo‘nalishdagi fanlardan nazorat materiallarini tayyorlab, ularning maxfiyligini ta’minlagan holda o‘quvchilardan nazorat ishlari olinadi.

Maktabda direktor yoki tajribali fan o‘qituvchilari, psixologlardan iborat appelyatsiya komissiyasi tuziladi. Appelyatsiya komissiyasi amaldagi me’yoriy hujjatlar asosida o‘z faoliyatini amalga oshiradi.

Sinovdan o‘tolmagan o‘quvchi an’anaviy sinfda o‘’qishini davom ettiradi.

11. Ota-onalar farzandlarini tanlov sinfiga qabul qilishi to‘g‘risida direktor nomiga ariza yozadi.

Tajriba-sinov davrida o‘quvchilarga o‘quv yili davomida tanlov sinfidan an’anaviy sinfga yoki an’anaviy sinfdan tanlov sinfiga o‘tishiga ruxsat beriladi.

12. Tajriba-sinov maktabidagi 10-sinflar “Umumta’lim muassasalari sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3271)* muvofiq komplektlanadi. Bunda, sinflar soni mavjud 10-sinflar sonidan oshib ketishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

13. Maktab direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari va fan metod birlashma rahbarlari tomonidan tanlov fani joriy etiladigan sinf yo‘nalishi, o‘quvchilar ro‘yxati, sinf rahbari va mazkur fanlardan dars beruvchi o‘qituvchilar to‘g‘risida ma’lumot tayyorlanadi.

14. Ushbu ma’lumot maktab pedagogika kengashida muhokama qilinib, kengashda yo‘nalishi, tanlov fani joriy etiladigan sinfga mo‘ljallangan o‘quv reja, fan o‘qituvchilari, dars taqsimoti, sinf rahbarini belgilash, o‘quvchilar ro‘yxatini tasdiqlash bo‘yicha tegishli qaror qabul qilinadi.

III. Majburiy fanlar

15. Tanlov fani joriy etiladigan sinfda quyidagi **11 ta majburiy fan** o‘qitiladi:

Ona tili va adabiyot, chet tili, rus tili, tarix, tarbiya, matematika, kimyo, biologiya, fizika, jismoniy tarbiya, chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik.

16. Tanlov sinfida quyidagi majburiy va tanlov fanlarini o‘tishda ikki guruhga bo‘lib o‘qitishga ruxsat etiladi:

malakali o’qituvchilar yetarli bo’lib, o’quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo’lganda chet tili, ta’lim tili rus tili bo’lmagan umumta’lim muassasalarida “rus tili”, chaqiriqqa qadar boshlang’ich tayyorgarlik, jismoniy tarbiya fanlari ikki guruhga bo’lib o’qitiladi.

IV. Tanlov fanlari

17. O‘quvchilar tomonidan tanlangan yo‘nalishga oid fanlar tanlov fanlari hisoblanadi.

18. Tanlov fanlari joriy etiladigan sinfda majburiy fanlar bilan birga tanlov fanlari ham o‘qitiladi.

19. Tanlov fanlarini chuqur o’rgatishda darsliklardan tashqari, qo’shimcha adabiyot va manbalardan foydalanish mumkin.

20. Tanlov fanlari joriy etiladigan sinfda tanlov fanlarining dars soatlari ayrim umumta'lim fanlari dars soatlarining qisqarishi evaziga oshirilgan holda o'qitiladi.

21. Tanlov fanlari joriy etiladigan sinf bitiruvchilarining umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi shahodatnomasiga yakuniy baholar quyidagicha qo'yiladi:

o'quv reja bo'yicha 11-sinfda o'qitilgan barcha fanlardan yillik *(yakuniy*) baholari sinf jurnallari (*kundalik.com*) asosida qo'yiladi;

10-11-sinflarda tegishli o'quv reja asosida tashkil etilgan sinflarda o'tilmagan fanlarning baholari 9-sinf tayanch o'rta ta'lim to'g'risidagi shahodatnomasidan ko'chiriladi;

tanlov fani joriy etilgan sinfda o'tilmagan "Tadbirkorlik asoslari" va "Astronomiya" fanlari bo'yicha baholar qo'yilmaydi.

22. "Geografiya", "Davlat va huquq asoslari", "Informatika va axborot texnologiyalari" fanlari doirasida shakllantirilishi lozim bo'lgan kompetensiyalar turdosh fanlar hamda fan to'garaklarida rivojlantiriladi.

23. Tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarda 11-sinf bitiruvchilari mavjud o'qitilgan fanlar doirasida davlat imtihonini topshirishi mumkin.

V. Yakuniy qoidalar

24. Tanlov sinfini tashkil etish yoki uni tugatish maktabning pedagogika kengashi qarori asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2023-yil 27-iyundagi
192-sonli buyrug‘iga
2-ILOVA

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning o‘quv rejasi va tushuntirish xati
Matematika va fizika yo‘nalishi

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Haftalik soat
		10-sinf
	Majburiy fanlar	
I	**Filologiya fanlari**	9
1	Ona tili va adabiyot	5
2	Rus tili	1
3	Chet tili	3
II	**Ijtimoiy fanlar**	3
4	Tarix	2
5	Tarbiya	1
III	**Aniq fanlar**	5
6	Matematika	5
IV	**Tabiiy fanlar**	3
7	Fizika	1
8	Kimyo	1
9	Biologiya	1
V	**Amaliy fanlar**	2
10	Jismoniy tarbiya	1
11	Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	1
jami:		**22**
	Tanlov fanlari	
1	Matematika	5
2	Fizika	4
jami:		**9**
Umumiy haftalik soat		**31**

TUSHUNTIRISH XATI

1. Matematika va fizika yo‘nalishidagi tanlov sinfida “Matematika”, “Fizika” fanlari tanlov fanlari hisoblanadi.

2. Tanlov sinflarda majburiy fanlar quyidagicha:

“Ona tili va adabiyot” fani haftasiga: 3 soat **“Ona tili”**, 2 soat **“Adabiyot”** fani;

“Rus tili” fani haftasiga 1 soat;

“Chet tili” fani haftasiga 3 soat.

“Tarix” fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

“O‘zbekiston tarixi” fani haftasiga 1,5 soat, **“Jahon tarixi”** 0.5 soat;

“Tarbiya” fani haftasiga 1 soat.

“Matematika” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

“Algebra” fani 3 soat, **“Geometriya”** fani 2 soat;

“Fizika” fani haftasiga 1 soat;

“Kimyo” fani haftasiga 1 soat;

“Biologiya” fani haftasiga 1 soat;

“Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fani haftasiga 1 soat;

“Jismoniy tarbiya” fani haftasiga 1 soat hajmda o‘qitiladi.

3. Tanlov fanlari quyidagicha:

“Matematika” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

“Algebra” fani 3 soat, **“Geometriya”** fani 2 soat;

“Fizika” fani haftasiga 4 soat hajmda o‘qitiladi.

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Haftalik soat
		10-sinf
Majburiy fanlar		
I	**Filologiya fanlari**	9
1	Ona tili va adabiyot	5
2	Rus tili	1
3	Chet tili	3
II	**Ijtimoiy fanlar**	3
4	Tarix	2
5	Tarbiya	1
III	**Aniq fanlar**	5
6	Matematika	5
IV	**Tabiiy fanlar**	3
7	Fizika	1
8	Kimyo	1
9	Biologiya	1
V	**Amaliy fanlar**	2
10	Jismoniy tarbiya	1
11	Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	1
jami:		**22**
Tanlov fanlar		
1	Kimyo	5
2	Biologiya	4
jami:		**9**
Umumiy haftalik soat		**31**

TUSHUNTIRISH XATI

1. Kimyo va biologiya yo‘nalishidagi tanlov sinfida “Kimyo”, “Biologiya” fanlari tanlov fanlari hisoblanadi.

2. Tanlov sinflarda majburiy fanlar quyidagicha o‘qitiladi:

“Ona tili va adabiyot” fani haftasiga: 3 soat **“Ona tili”**, 2 soat **“Adabiyot”** fani;

“Rus tili” fani haftasiga 1 soat;

“Chet tili” fani haftasiga 3 soat.

“Tarix” fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

“O‘zbekiston tarixi” fani haftasiga 1,5 soat, **“Jahon tarixi”** fani haftasiga 0.5 soat;

“Tarbiya” fani haftasiga 1 soat.

“Matematika” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

“Algebra” fani 3 soat, “Geometriya” fani 2 soat;

“Fizika” fani haftasiga 1 soat;

“Kimyo” fani haftasiga 1 soat;

“Biologiya” fani haftasiga 1 soat;

“Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fani haftasiga 1 soat;

“Jismoniy tarbiya” fani haftasiga 1 soat hajmda o‘qitiladi.

3. Tanlov fanlari quyidagicha:

“Kimyo” fani 5 soat;

“Biologiya” fani haftasiga 4 soat hajmda o‘qitiladi.

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Haftalik soat
		10-sinf
Majburiy fanlar		
I	**Filologiya fanlari**	8
1	Ona tili va adabiyot	4
2	Rus tili	1
3	Chet tili	3
II	**Ijtimoiy fanlar**	3
4	Tarix	2
5	Tarbiya	1
III	**Aniq fanlar**	5
6	Matematika	5
IV	**Tabiiy fanlar**	3
7	Fizika	1
8	Kimyo	1
9	Biologiya	1
V	**Amaliy fanlar**	2
10	Jismoniy tarbiya	1
11	Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	1
jami:		**21**
Tanlov fanlar		
1	Ona tili va adabiyot	6
2	Chet tili	4
jami:		**10**
Umumiy haftalik soat		**31**

TUSHUNTIRISH XATI

1. Ona tili va chet tili yo‘nalishidagi tanlov sinfida “Ona tili va adabiyot”, “Chet tili” fanlari tanlov fanlari hisoblanadi.

2. Tanlov sinflarda majburiy fanlar quyidagicha:

“Ona tili va adabiyot” fani haftasiga: 2 soat “Ona tili”, 2 soat “Adabiyot” fani;

“Rus tili” fani haftasiga 1 soat;

“Chet tili” fani haftasiga 3 soat.

“Tarix” fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

“O‘zbekiston tarixi” fani haftasiga 1,5 soat, **“Jahon tarixi”** fani haftasiga 0.5 soat;

“Tarbiya” fani haftasiga 1 soat.

“Matematika” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

“Algebra” fani 3 soat, “Geometriya” fani 2 soat;

“Fizika” fani haftasiga 1 soat;

“Kimyo” fani haftasiga 1 soat;

“Biologiya” fani haftasiga 1 soat;

“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fani haftasiga 1 soat;

“Jismoniy tarbiya” fani haftasiga 1 soat hajmda o‘qitiladi.

3. Tanlov fanlari quyidagicha:

“Ona tili va adabiyot” fani haftasiga: 3 soat **“Ona tili”**, 3 soat **“Adabiyot” fani;**

“Chet tili” fani haftasiga 4 soat hajmda o‘qitiladi.

Matematika va chet tili yo‘nalishi o‘quv rejasi

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Haftalik soat
		10-sinf
Majburiy fanlar		
I	**Filologiya fanlari**	9
1	Ona tili va adabiyot	5
2	Rus tili	1
3	Chet tili	3
II	**Ijtimoiy fanlar**	3
4	Tarix	2
5	Tarbiya	1
III	**Aniq fanlar**	5
6	Matematika	5
IV	**Tabiiy fanlar**	3
7	Fizika	1
8	Kimyo	1
9	Biologiya	1
V	**Amaliy fanlar**	2
10	Jismoniy tarbiya	1
11	Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	1
jami:		**22**
Tanlov fanlari		
1	Matematika	5
2	Chet tili	4
jami:		**9**
Umumiy haftalik soat		**31**

TUSHUNTIRISH XATI

1. Matematika va chet tili yo‘nalishidagi tanlov sinfida “Matematika”, “Chet tili” fanlari tanlov fanlari hisoblanadi.

2. Tanlov sinflarda majburiy fanlar quyidagicha:

“Ona tili va adabiyot” fani haftasiga: 3 soat **“Ona tili”** va 2 soat **“Adabiyot”** fani;

“Rus tili” fani haftasiga 1 soat;

“Chet tili” fani haftasiga 3 soat.

“Tarix” fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

“**O‘zbekiston tarixi**” fani haftasiga 1,5 soat, “**Jahon tarixi**” fani haftasiga 0.5 soat;

“Tarbiya” fani haftasiga 1 soat.

“Matematika” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

“Algebra” fani 3 soat, **“Geometriya”** fani 2 soat;

“Fizika” fani haftasiga 1 soat;

“Kimyo” fani haftasiga 1 soat;

“Biologiya” fani haftasiga 1 soat;

“**Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik”** fani haftasiga 1 soat;

“Jismoniy tarbiya” fani haftasiga 1 soat hajmda o‘qitiladi.

3. Tanlov fanlari quyidagicha:

“Matematika” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

“Algebra” fani 3 soat, **“Geometriya”** fani 2 soat;

“Chet tili” fani haftasiga 4 soat hajmda o‘qitiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2023-yil 27-iyundagi
192-sonli buyrug‘iga
3-ILOVA

Yuqori sinf o‘quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha tajriba-sinov o‘tkaziladigan umumta’lim maktablari ro‘yxati

T/r	Hudud	Tuman (shahar)	Maktab raqami
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Ellikqal’a tumani	22-maktab
2	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Xo‘jayli tumani	3-maktab
3	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Amudaryo tumani	36-maktab
4	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Beruniy tumani	60-maktab
5	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Beruniy tumani	38-maktab
6	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Xo’jayli tumani	24-maktab
7	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	To‘rtko‘l tumani	30-maktab
8	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Amudaryo tumani	18-maktab
9	Andijon viloyati	Andijon shahar	48-maktab
10	Andijon viloyati	Andijon shahar	50-maktab
11	Andijon viloyati	Andijon shahar	31-maktab
12	Andijon viloyati	Baliqchi tuman	54-maktab
13	Andijon viloyati	Marhamat tumani	10-maktab
14	Andijon viloyati	Jalaquduq tumani	11-maktab
15	Andijon viloyati	Asaka tumani	55-maktab
16	Andijon viloyati	Andijon tuman	45-maktab

17	Andijon viloyati	Buloqboshi tuman	2-maktab
18	Andijon viloyati	Oltinko‘l tumani	22-maktab
19	Buxoro viloyati	Buxoro shahar	38-maktab
20	Buxoro viloyati	Buxoro shahar	14-maktab
21	Buxoro viloyati	Buxoro shahar	23-IDUM
22	Buxoro viloyati	Kogon shahar	9- maktab
23	Buxoro viloyati	Jondor tuman	1-maktab
24	Buxoro viloyati	Kogon tumani	11-maktab
25	Buxoro viloyati	Jondor tuman	8-maktab
26	Buxoro viloyati	Buxoro shahar	17-maktab
27	Jizzax viloyati	Sh. Rashidov tumani	13-maktab
28	Jizzax viloyati	Sh. Rashidov tumani	36-maktab
29	Jizzax viloyati	Jizzax shahar	6-maktab
30	Jizzax viloyati	Jizzax shahar	22-maktab
31	Jizzax viloyati	G’allaorol tumani	44-maktab
32	Jizzax viloyati	Zarbdor tumani	3-maktab
33	Jizzax viloyati	Mirzacho‘l tumani	18-maktab
34	Jizzax viloyati	Paxtakor tumani	9-maktab
35	Jizzax viloyati	Baxmal tumani	1-maktab
36	Navoiy viloyati	Qiziltepa tumani	5-ISMM
37	Navoiy viloyati	Navoiy shahar	12-maktab
38	Navoiy viloyati	Uchquduq tumani	10-maktab
39	Navoiy viloyati	Karmana tumani	3-maktab
40	Navoiy viloyati	Uchquduq tumani	18-maktab
41	Navoiy viloyati	Navbahor tumani	1-maktab
42	Navoiy viloyati	Navoiy shahar	11-maktab
43	Samarqand viloyati	Samarqand tuman	3-maktab
44	Samarqand viloyati	Jomboy tuman	14-maktab
45	Samarqand viloyati	Samarqand tuman	23-maktab

46	Samarqand viloyati	Samarqand shahar	24-maktab
47	Samarqand viloyati	Samarqand shahar	14-maktab
48	Samarqand viloyati	Pastdarg‘om tuman	8-maktab
49	Surxondaryo viloyati	Termiz shahri	13-maktab
50	Surxondaryo viloyati	Termiz shahri	9-maktab
51	Surxondaryo viloyati	Denov tumani	81-maktab
52	Surxondaryo viloyati	Denov tumani	82-maktab
53	Surxondaryo viloyati	Jarqo‘rg‘on tumani	19-IDUM
54	Surxondaryo viloyati	Sariosiyo tumani	2-maktab
55	Surxondaryo viloyati	Termiz tumani	16-IDUM
56	Surxondaryo viloyati	Qumqo‘rg‘on tumani	2-maktab
57	Farg‘ona viloyati	Farg‘ona tumani	15-maktab
58	Farg‘ona viloyati	Toshloq tumani	6-maktab
59	Farg‘ona viloyati	Uchko‘prik tumani	20-maktab
60	Farg‘ona viloyati	Farg‘ona shahar	5-maktab
61	Farg‘ona viloyati	Marg‘ilon shahar	33-maktab
62	Farg‘ona viloyati	Qo‘qon shahar	29-maktab
63	Farg‘ona viloyati	Quva tumani	19-maktab
64	Farg‘ona viloyati	Farg‘ona shahar	13-maktab
65	Farg‘ona viloyati	Quva tumani	5-maktab
66	Fargona viloyati	O‘zbekiston tumani	18-maktab
67	Sirdaryo viloyati	Boyovut tumani	1-maktab
68	Sirdaryo viloyati	Guliston shahar	8-maktab
69	Sirdaryo viloyati	Guliston shahar	11-maktab
70	Sirdaryo viloyati	Guliston shahar	15-maktab
71	Sirdaryo viloyati	Guliston shahar	16-maktab
72	Sirdaryo viloyati	Sayxunobod tumani	1-maktab
73	Sirdaryo viloyati	Xovos tumani	1-maktab
74	Sirdaryo viloyati	Sirdaryo tumani	1-maktab

75	Sirdaryo viloyati	Shirin shahar	1-maktab
76	Sirdaryo viloyati	Yangiyer shahar	1-maktab
77	Toshkent viloyati	Bekobod shahar	9-maktab
78	Toshkent viloyati	Yuqori Chirchiq tumani	9-maktab
79	Toshkent viloyati	Olmaliq shahar	19-maktab
80	Toshkent viloyati	Toshkent tumani	9-maktab
81	Toshkent viloyati	Angren shahar	8-maktab
82	Toshkent viloyati	Oqqo‘rg‘on tumani	6-maktab
83	Toshkent viloyati	Chirchiq shahar	13 - maktab
84	Namangan viloyati	Namangan shahar	7-maktab
85	Namangan viloyati	Pop tumani	10-maktab
86	Namangan viloyati	Namangan tumani	8-maktab
87	Namangan viloyati	Namangan shahar	18-maktab
88	Namangan viloyati	Namangan shahar	31-maktab
89	Namangan viloyati	Chortoq tumani	11-maktab
90	Namangan viloyati	Namangan tumani	30-maktab
91	Qashqadaryo viloyati	G‘uzor tumani	1-maktab
92	Qashqadaryo viloyati	Kitob tumani	4-maktab
93	Qashqadaryo viloyati	Ko‘kdala tumani	58-maktab
94	Qashqadaryo viloyati	Muborak tumani	1-maktab
95	Qashqadaryo viloyati	Qarshi shahar	34-maktab
96	Qashqadaryo viloyati	Qarshi shahar	9-maktab
97	Qashqadaryo viloyati	Qarshi shahar	4-maktab
98	Qashqadaryo viloyati	Qarshi shahar	10-maktab
99	Qashqadaryo viloyati	Shahrisabz shahar	1-maktab
100	Qashqadaryo viloyati	Qarshi tumani	33-maktab
101	Xorazm viloyati	Urganch shahar	13-maktab
102	Xorazm viloyati	Urganch shahar	5-maktab

103	Xorazm viloyati	Bog‘ot tumani	3-maktab
104	Xorazm viloyati	Urganch tuman	15-maktab
105	Xorazm viloyati	Yangibozor tumani	24-maktab
106	Xorazm viloyati	Xiva tumani	8-maktab
107	Xorazm viloyati	Shovot tumani	1-maktab
108	Xorazm viloyati	Yangiariq tumani	4-maktab
109	Xorazm viloyati	Xonqa tumani	22-maktab
110	Toshkent shahri	Mirobod tumani	125 maktab
111	Toshkent shahri	Mirzo Ulug‘bek tumani	256-maktab
112	Toshkent shahri	Olmazor tumani	249-maktab
113	Toshkent shahri	Olmazor tumani	234-maktab
114	Toshkent shahri	Olmazor tumani	315-maktab
115	Toshkent shahri	Olmazor tumani	278-maktab
116	Toshkent shahri	Uchtepa tumani	203-maktab
117	Toshkent shahri	Uchtepa tumani	238-maktab
118	Toshkent shahri	Shayxontohur tumani	102- maktab
119	Toshkent shahri	Yunusobod tumani	258-maktab
120	Toshkent shahri	Yunusobod tumani	274-maktab
121	Toshkent shahri	Yunusobod tumani	288-maktab
122	Toshkent shahri	Yakkasaroy tumani	127- maktab
123	Toshkent shahri	Yangihayot tumani	330-maktab
124	Toshkent shahri	Yangihayot tumani	331-maktab

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Ikkinchi xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti joriy etiladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni ijrosini ta’minlash hamda o‘quvchilarni ikkinchi xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyotini joriy etish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

ta’lim **o‘zbek tilida** o‘qitiladigan ikkinchi xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti joriy etiladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasi va tushuntirish xati 1-ilovaga muvofiq;

ta’lim **rus va qardosh** tilida o‘qitiladigan ikkinchi xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti joriy etiladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasi va tushuntirish xati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva) **2023-yil 1-avgustga qadar** umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ikkinchi xorijiy tilni o‘rgatish bo‘yicha xalqaro nashriyotlar darsliklarini joriy yilda xarid qilish va mahalliylashtirish yuzasidan taklif kiritsin.

3. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi (R.Musurmonov) ikkinchi xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish tizimi joriy etiladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi mavjud elektron dastur (kundalik.com)ni texnik jihatdan qayta takomillashtirsin.

4. Belgilab qo‘yilsinki, ikkinchi xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti joriy etiladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ikkinchi xorijiy til hamda kasbiy ta’lim fanlaridan tashqari boshqa fanlarning o‘quv jarayonlari O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 15-maydagi “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch

o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida”gi 125-sonli buyrug‘i asosida tashkil qilinadi.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U. Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 17-iyul,
209-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2023-yil 17-iyuldagi
209-son buyrug‘iga
1-ILOVA

Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan ikkinchi xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti joriy etiladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasi

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Haftalik o‘quv soatlari (sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soat
		1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*	*9*	*10*	*11*	
I.	**Filologiya fanlari**	**10**	**11**	**11**	**11**	**11**	**11**	**12**	**10**	**10**	**9**	**9**	**115**
1	Ona tili va adabiyot	8	7	7	7	6	6	5	5	5	4	4	**64**
2	Rus tili		2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	**20**
3	Chet tili	2	2	2	2	3	3	3	3	3	3	3	**29**
4	Ikkinchi xorijiy til							2					**2**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**1**	**1**	**1**	**1**	**3**	**3**	**4**	**5**	**5**	**4**	**4**	**32**
5	Tarix					2	2	3	3	3	2	2	**17**
6	Davlat va huquq asoslari								1	1	1	1	**4**
7	Tarbiya	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	**11**
III.	**Aniq fanlar**	**6**	**5**	**5**	**5**	**6**	**6**	**5**	**6**	**7**	**6**	**7**	**64**
8	Matematika	5	5	5	5	5	5	4	5	5	5	5	**54**

9	Informatika va axborot texnologiyalari	1				1	1	1	1	2	1	2	**10**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**1**	**2**	**2**	**2**	**2**	**3**	**8**	**8**	**8**	**8**	**8**	**52**
10	Fizika va astronomiya							2	2	2	2	3	**11**
11	Kimyo							2	2	2	2	2	**10**
12	Biologiya					1		2	2	2	2	2	**11**
13	Geografiya va iqtisodiyot					1		2	2	2	2	1	**10**
14	Tabiiy fan (Science)	1	2	2	2		3						**10**
V.	**Amaliy fanlar**	**4**	**5**	**5**	**5**	**6**	**6**	**5**	**4**	**4**	**4**	**3**	**51**
15	Musiqa madaniyati	1	1	1	1	1	1	0,5					**6.5**
16	Tasviriy san'at va chizmachilik	1	1	1	1	1	1	0,5	1	1			**8.5**
17	Texnologiya	1	1	1	1	2	2	2	1	1			**12**
18	Kasbiy ta'lim										2		**2**
19	Jismoniy tarbiya	1	2	2	2	2	2	2	2	2	1	2	**20**
20	Chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik										1	1	**2**
Jami:		**22**	**24**	**24**	**24**	**28**	**29**	**34**	**33**	**34**	**31**	**31**	**314**

TUSHUNTIRISH XATI

I. Asosiy tamoyillari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini **“Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”**da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi 27-PF-son Farmonida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda har bir tuman (shahar) ning bittadan umumiy o‘rta ta’lim muassasasida o‘quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilmoqda.

II. O‘quv soatlarining taqsimlanishi

2. 2023-2024-o‘quv yilida “**Ikkinchi xorijiy til**” faqat 7-sinfda haftasiga **2 soatdan** o‘qitiladi.

3. Umumta’lim maktablarida xorijiy *(ingliz, nemis, fransuz va boshqa)* tillardan birini **Ikkinchi xorijiy til** sifatida o‘qitishda ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istaklari, shuningdek, ta’lim muassasasida ushbu fan bo‘yicha malakali fan o‘qituvchisi mavjudligi inobatga olinishi lozim.

4. “**Ikkinchi xorijiy til**” fani uchun 10-sinfda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan 1 soat, “Jismoniy tarbiya” fanidan 1 soat olinib o‘qitiladi.

5. 2023-2024-o‘quv yilida “**Kasbiy ta’lim**” fani faqat 10-sinfda haftasiga **2 soatdan** o‘qitiladi.

6. “**Kasbiy ta’lim**” fani uchun “Matematika” fanidan 1 soat, “Musiqa madaniyati” fanidan 0,5 soat, “Tasviriy san’at” fanidan 0,5 soat olinib o‘qitiladi.

III. Yakuniy qoidalar

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2017-yil 15-martdagi 140-son qaroriga muvofiq, malakali o‘qituvchilar yetarli bo‘lgan taqdirda o‘quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 7-sinfida “**Ikkinchi xorijiy til**” ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2023-yil 17-iyuldagi
209-son buyrug‘iga
2-ILOVA

Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan ikkinchi xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti joriy etiladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasi

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Haftalik o‘quv soatlari (sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soat
		1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*	*9*	*10*	*11*	
I.	**Filologiya fanlari**	**10**	**11**	**11**	**11**	**11**	**11**	**12**	**10**	**10**	**9**	**9**	**115**
1	Ona tili va adabiyot	8	7	7	7	5	5	4	4	4	3	3	**57**
2	O‘zbek tili/ Rus tili		2	2	2	3	3	3	3	3	3	3	**27**
3	Chet tili	2	2	2	2	3	3	3	3	3	3	3	**29**
4	Ikkinchi xorijiy til							2					**2**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**1**	**1**	**1**	**1**	**3**	**3**	**4**	**5**	**5**	**4**	**4**	**32**
5	Tarix					2	2	3	3	3	2	2	**17**
6	Davlat va huquq asoslari								1	1	1	1	**4**
7	Tarbiya	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	**11**
III.	**Aniq fanlar**	**6**	**5**	**5**	**5**	**6**	**6**	**5**	**6**	**7**	**7**	**7**	**64**
8	Matematika	5	5	5	5	5	5	4	5	5	5	5	**54**
9	Informatika va axborot texnologiyalari	1				1	1	1	1	2	1	2	**10**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**1**	**2**	**2**	**2**	**2**	**3**	**8**	**8**	**8**	**8**	**8**	**52**

10	Fizika va astronomiya							2	2	2	2	3	**11**
11	Kimyo							2	2	2	2	2	**10**
12	Biologiya					1		2	2	2	2	2	**11**
13	Geografiya va iqtisodiyot					1		2	2	2	2	1	**10**
14	Tabiiy fan (Science)	1	2	2	2		3						**10**
V.	**Amaliy fanlar**	**4**	**5**	**5**	**5**	**6**	**6**	**5**	**4**	**4**	**4**	**3**	**51**
15	Musiqa madaniyati	1	1	1	1	1	1	0,5					**6.5**
16	Tasviriy san'at va chizmachilik	1	1	1	1	1	1	0,5	1	1			**8.5**
17	Texnologiya	1	1	1	1	2	2	2	1	1			**14**
18	Kasbiy ta'lim										2		**2**
19	Jismoniy tarbiya	1	2	2	2	2	2	2	2	2	1	2	**20**
20	Chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik										1	1	**2**
Jami		**22**	**24**	**24**	**24**	**28**	**29**	**34**	**33**	**34**	**31**	**31**	**314**

TUSHUNTIRISH XATI

I. Asosiy tamoyillari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini **“Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”**da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi 27-PF-son Farmonida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda har bir tuman (shahar)ning bittadan umumiy o‘rta ta’lim muassasasida o‘quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilmoqda.

II. O‘quv soatlarining taqsimlanishi

2. 2023-2024-o‘quv yilida “**Ikkinchi xorijiy til**” faqat 7-sinfda haftasiga **2 soatdan** o‘qitiladi.

3. Umumta’lim maktablarida xorijiy *(ingliz, nemis, fransuz va boshqa)* tillardan birini **Ikkinchi xorijiy til** sifatida o‘qitishda ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istaklari, shuningdek, ta’lim muassasasida ushbu fan bo‘yicha malakali fan o‘qituvchisi mavjudligi inobatga olinishi lozim.

4. “**Ikkinchi xorijiy til”** fani uchun 10-sinfda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan 1 soat, “Jismoniy tarbiya” fanidan 1 soat olinib o‘qitiladi.

5. 2023-2024-o‘quv yilida “**Kasbiy ta’lim**” fani faqat 10-sinfda haftasiga **2 soatdan** o‘qitiladi.

6. “**Kasbiy ta’lim**” fani uchun “Matematika” fanidan 1 soat, “Musiqa madaniyati” fanidan 0,5 soat, “Tasviriy san’at” fanidan 0,5 soat olinib o‘qitiladi.

III. Yakuniy qoidalar

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2017-yil 15-martdagi 140-son qaroriga muvofiq, malakali o‘qituvchilar yetarli bo‘lgan taqdirda o‘quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 7-sinfida “**Ikkinchi xorijiy til**” ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan variativ o‘quv rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni ijrosini ta’minlash hamda umumta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlarni va ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash, o‘quvchilarning qiziqishlarini inobatga olish, maktab o‘quvchilarining oliy o‘quv yurtlariga tayyorgarlik ko‘rishlariga keng imkoniyatlar yaratish maqsadida **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida variativ o‘quv rejalarini joriy etish bo‘yicha **tavsiya** 1-ilovaga muvofiq;

ta’lim **o‘zbek tilida** bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan variativ o‘quv rejalari 2-ilovaga muvofiq;

ta’lim **rus tilida** bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan variativ o‘quv rejalari 3-ilovaga muvofiq;

ta’lim **qardosh tillarida** bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan variativ o‘quv rejalari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Bir hafta muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (A.Narimbetov) hududidagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan variativ o‘quv rejalarni ishlab chiqsin hamda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlasin.

3. Belgilab qo‘yilsinki:

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida variativ o‘quv rejalarini joriy qilish **ixtiyoriy** hisoblanadi;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida variativ o‘quv rejalari asosi-

da ta’lim jarayonini tashkil etishda tayanch o‘quv rejada belgilangan umumiy **haftalik dars soatlari hajmi** saqlanib qolinadi.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

variativ o‘quv rejalarini barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga yetkazish;

tavsiya etilgan yo‘nalishlar bo‘yicha variativ o‘quv rejalari asosida o‘qitiladigan sinflarni shakllantirishda o‘quvchilar va ota-onalarning xohishlari inobatga olinishini ta’minlash;

variativ o‘quv rejalarini joriy etish, tanlov fanlarini belgilash va sinflarni shakllantirishda umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi Kuzatuv kengashi orqali muntazam jamoatchilik nazoratini o‘rnatish vazifalari yuklatilsin.

5. Respublika ta’lim markazi (Sh. Sattarov)ga:

bir oy muddatda variativ o‘quv rejalar asosida tegishli o‘quv dasturlarni va namunaviy taqvim-mavzu rejalarni ishlab chiqish;

joriy yil **15-avgustga qadar** ushbu o‘quv dasturlar hamda taqvim-mavzu rejalarni hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazish vazifalari topshirilsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U. Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 19-iyul,
213-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Kutubxonalar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PQ-177-son va Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-iyuldagi 271-son Qarorlari bilan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufidagi Respublika Bolalar kutubxonasi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi tasarrufiga o‘tkazilishi munosabati bilan, hozirda vazirlik tizimida 10 118 ta umumta’lim maktablari kutubxonalari, 14 ta hududiy “Bolalar kutubxonalari”ga amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatish hamda sohaga oid yangiliklar bilan yaqindan tanishtirishda muammolar yuzaga kelishini oldini olish maqsadida **buyuraman:**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining Respublika Bolalar kutubxonasiga belgilangan vazifalarni Respublika pedagogik ta’lim resurs markaziga (keyingi o‘rinlarda - Ta’lim resurs markazi) o‘tkazish yuzasidan taklifiga rozilik berilsin.

2. Ta’lim resurs markazi moddiy-texnika bazasi bilan birgalikda Toshkent shahar, Sergeli tumani, 5-mavzesida joylashgan Toshkent shahar Bolalar kutubxonasi binosiga joylashtirilsin.

3. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (A. Qirg‘izboyev), Maktabdan tashqari ta’imni tashkil etish bo‘limi (L. Xoldarova)ga:

Ta’lim resurs markazining Ustaviga Respublika Bolalar kutubxonasining funksiya va vazifalaridan kelib chiqib, o‘zgartirish hamda qo‘shimchalar kiritish;

15 kun muddatda Ustav loyihasini Adliya vazirligidan ro‘yxatdan o‘tkazish;

Ta’lim resurs markazining normativ huquqiy hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish vazifalari yuklatilsin.

4. Devonxona (D. Isxakova) ushbu buyruqni bir kun muddatda tegishli mas’ullarga yetkazilishini ta’minlasin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosarlari D. Kenjayev va U. Begimqulovlar zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 24-iyul,
217-son

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Mas'ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY'ATI:
Xilola UMAROVA, Risboy JO'RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug'bek INOYATOV, G'ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO'MINOVA, Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV, Ravil IS'YANOV, Mirodiljon BARATOV, Shaxnoza XALILOVA, Sharibboy ERGASHEV, Yashin ISMANDIYAROV, Alisher UMAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA'MUROV, Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV, Muhayyo UMARALIYEVA.

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG'UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV, Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar Shayxontohur tumani Navoiy ko'chasi 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: (0 371) 231-16-52

Jurnal O'zMAA tomonidan 2015-yil 3-iyunda ro'yxatga olinib, 0852-raqamli guvohnoma berilgan.

Buyruq va ularning ilovalari to'liq, o'zgartirishsiz chop etilmoqda. Jurnal tahririyatning kompyuter bo'limida terilib, sahifalandi.

"Sano-standart" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Olmazor tumani Shiroq ko'chasi, 100-uy.

Bosishga ruxsat etildi: 00. 00. 2020-y. Qog'oz bichimi 84x108 $^{1}/_{32}$.
Ofset bosma usuli. Shartli b.t. 7,0. Adadi ------ nusxa.
-buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

© "Xalq ta'limi axborotnomasi", 2023.